

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

HUQUQSHUNOSLIK  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI  
FANINING MAVZULARI BO'YICHA

TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARINI  
SHAKLLANTIRISHI

USLUBIY QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**HUQUQSHUNOSLIK  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI  
FANINING MAVZULARI BO'YICHA**

**TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARINI  
SHAKLLANTIRISH**

**USLU BIY QO'LLANMA**

UDK 004:591.555.16

Huquqshunoslik. o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi fanining mavzulari bo'yicha talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish. Oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun qo'llanma. Mahkamova.N.

-T.: ToshDTU, 2017. 64 b.

Ushbu uslubiy qo'llanma Toshkent davlat texnika universitetining ishchi-o'quv rejasidagi «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanini o'rganishni maqsad va vazifalarini amalgaloshtirishga qaratilgan bo'lib, unga fuqarolik madaniyatining tushunchasi va mohiyati, xususiyatlari, metodikasiga oid bo'lgan masalalar ilmiy-pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan. Unda talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishning nazariy asoslari, tarixiy ildizlari, shakllari, omillari, bosqichlari, murabbiy mahorati, ijtimoiy muammolar, kompleks yondashish va tadbirlarning mohiyati, mazmuni ilmiy-metodik jihatdan ishlab chiqilgan. Ushbu uslubiy qo'llanmadan professor-o'qituvchilar, talabalar va ilmiy izlanuvchilar keng foydalanishlari mumkin.

### **Taqribchilar:**

Sh. Xalilova - pedagogika fanlari doktori, professor

R.Xoliqova – ToshDTU, tarix fanlari doktori, professor

Ushbu uslubiy qo'llanma Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashining qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

## KIRISH

O'zbekiston bugungi kunda mustaqil davlat sifatida o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Uning bosh strategik maqsadi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish hisoblanadi.

O'zbekistonda qurilayotgan ushbu fuqarolik jamiyatni o'ziga xos - insonning kamol topishi, shaxs manfaatlarining ro'yobga chiqishida, uning huquq va erkinliklarining namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirishga qaratilgan. 1997-yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi».

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010- yil 12- noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»da jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi bevosita odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga mamlakatimizda huquqiy ta'lif va ma'rifatni, inson huquq va erkinliklari, fuqarolarda qonunga itoatkorlikni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, bozor munosabatlariiga o'tish sharoitida jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar Respublikamiz hududidagi hamma ta'lif-tarbiya jarayonini huquqiy va demokratik prinsiplar asosida tashkil etishni taqazo etadi. Chunki bugungi kunda jamiyat hayotini demokratlashtiruvchi shart-sharoitlarni vujudga keltirish uchun aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ta'lif berish tizimida huquq fanini o'qitishni tashkil etishni talab darajasiga ko'tarish muhimdir. Chunki umumiy ta'lif jamiyat rivojining tayanchi bo'lsa, huquqiy ta'lif-tarbiya demokratik huquqiy davlatning poydevoridir.

Shunday ekan, asosiy maqsad demokratik huquqiy davlatni barpo etish va rivojlantirishda huquqiy-demokratik davlat tizimi, uning mohiyatini, qonunlarni chuqurroq o'rgatish, ularni bilish va ularga rioya etishni ta'minlashda «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanini o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda demokratik huquqiy davlat barpo etish bosh huquqiy omil hisoblangan. O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni hamda mohiyatini uzlusiz o'rganish mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadini tashkil etadi. U ayni paytda talabalarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini muntazam yuksaltirish shuningdek, asosiy qonunni mukammal o'zlashtirish uni hayotga keng targ'ib qilish maqsadini ham ko'zlaydi.

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Huquqshunoslik», «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanlaridan namunaviy dastur (tajriba sinov) asosida talabalarga davlat va huquqning paydo bo'lishi, ma'muriy, fuqarolik, iste'molchilar, mehnat, oila, ekologik, jinoyat va xalqaro huquq asoslarini o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

«Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanini o'qitishning maqsadi O'zbekiston davlat mustaqilligini mustahkamlash ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy, ta'litarbiyaviy islohotlarni amalga oshirish va chuqurlashtirish, huquqiy muammolarning hal etilishini o'rganish, bilish va unga rioya qilish talaba-yoshlarning Vatan oldidagi burchidir. Shuning uchun ushbu fandan asosiy maqsad talaba-yoshlarimizni huquqiy bilimlarini oshirish, ularni huquqiy davlatda, huquq ustuvorligi sharoitida faol hayot kechirishga o'rgatishdir.

Ayniqsa, O'zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda demokratik huquqiy davlat barpo etishda bosh huquqiy omil hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi va jamiyat taraqqiyotidagi, huquqiy davlat qurishdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni hamda mohiyatini uzlusiz o'rgatishdir. U ayni vaqtida fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini muntazam yuksaltirish, shuningdek, Asosiy qonunni mukammal o'zlashtirish, uni hayotga keng targ'ib-tashviqot qilish maqsadini ham ko'zlaydi.

Ushbu fandan ko'zlangan asosiy maqsad I.A.Karimov aytganidek: «Endigi eng do!zarb vazifamiz-bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berish talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat».

Uslubiy qo'llanmada talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish shakl va metodlari, darsdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni, tamoyillari metodik jihatdan o'qituvchilarga tavsiya etilgan.

Undan «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanini o'qitishda va talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishga oid tadbirlar o'tkazishda keng foydalanish mumkin.

Ushbu uslubiy o'quv qo'llanmada talabaning ongi, tafakkuri, ehtiyoj va manfaatlarining oshib borishini inobatga olgan holda ularning fuqorolik madaniyatni faolligini maqsadli yo'naltirish, fuqarolik madaniyatni shakllantirishda ma'naviyat muhim belgilovchi omil sifatidagi maqomini hisobga olish, globallashuv jarayonida zamon talablari darajasining oshib borishi talabalar hayoti, xatti-harakati, dunyoqarashida aks etishini hisobga olgan oliv ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish masalalari ilmiy metodik jihatdan ishlab chiqilgan.

«Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanini o'qitishning vazifalari:

«Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Huquqning, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, mazmun va mohiyatini chuqr tahlil etish;

- Davlat va huquq haqida asosiy tushuncha, ular haqidagi nazariyalarni, huquqiy ong va huquqiy davlat haqidagi tushunchalarni o'rganish;

- Huquq tizimlari, ya'ni ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, moliya va tadbirkorlik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, ekologiya va qishloq xo'jalik huquqi, jinoyat huquqi, xalqaro huquq tarmoqlari haqida qisqacha ma'lumot berish va ular haqidagi tushuncha va bilimlarni oshirish;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning faoliyati, vazifalari bilan tanishтирish;

Konstitutsiyaviy, huquqiy me'yorlarni o'rgatish bilan bo'lg'usi yosh mutaxassislarning huquqiy bilim va faolliklarini kuchaytirish, ularni mustahkamlash;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari, ya'ni O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, mustaqil davlat belgilari, xalq hokimiyatchiligi va tashqi siyosatni asosiy tamoyillarini tushuntirish va o'rgatish;

Fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlarini, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni, jamiyatning iqtisodiy asoslarni, respublikanizning ma'muriy hududiy va davlat tuzumining, saylov tizimi haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati oliv va mahalliy organlarning tuzilishi va vakolatlarini o'rgatish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini tushuntirish va tahlil qilish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan talabalarning milliy ongi, siyosiy madaniyati va yuksak ma'naviyatining o'sishi, ularda o'z qadr-qimmatini his etish, o'zligini anglash, mustaqil fikrlash, o'z salohiyatini oshirish, o'z imkoniyatlarini, iste'dod va qobiliyatlarini erkin namoyon etish, demokratik dunyoqarashini shakllantirish bevosita fuqarolik madaniyatini shakllantirish bilan bog'liqdir.

Chunki, fuqarolik madaniyatni shakllantirish jarayonida ularda qonunchilik, rivojlagan mamlakatlar tajribasi, xalqaro huquqiy me'yorlar, demokratik tamoyillar haqidagi bilimlar rivojlanadi. Buning natijasida ular dars va darsdan tashqari jarayonlarda mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni chuqur o'rganadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari bilan talabalarni tanishtirish ular faoliyatini mustahkamlashda va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Buning natijasida talabalarda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi haqidagi bilim va ma'lumotlari rivojlanadi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadi va mazmuni fuqarolik jamiyatni rivojlanishining o'ziga hos xususiyatlari, huquqiy ong va xulq-atvor masalalari ishlab chiqilgan.

Talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishda sub'yektiv omillar bilan bir qatorda, bunda uning huquqqa bo'lgan ularning qiziqishlari yosh xususiyatlari, uning ijtimoiy tajribasi, ijtimoiy-siyosiy faolligi shuningdek, murabbiy faoliyati, mehnat va oila huquqi kabi jarayonlarning ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan.

## **1.-bob. TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI**

### **1.1. Talabalarda fuqarolik huquqi asoslarini shakllantirishning nazariy asoslari**

Fan, ta'lif, san'at va madaniyat sohalarini rivojlantirish uni milliy mustaqillik talabalar, yangicha dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy ettirish davlatimiz va fuqarolik jamiyatni istiqbolining ustivor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Albatta bunda mamlakat fuqarolarida, jumladan talaba-yoshlarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish bevosita ularning sog'lom turmush tarzini, jismoniy, aqliy, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy salohiyatini rivojlantiradi. «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanini o'qitishda «Fuqarolik huquqi asoslari» mavzusi uchun ikki soat ma'ruza, ikki soat seminar va ikki soat mustaqil ta'limga qaratilgan. Albatta bunda o'qituvchining mediatexnologiyalardan foydalaniishi talabalarda fuqarolik huquqi asoslari haqidagi bilimlarni rivojlantiradi.

Talabalarda fuqarolik huquqi asoslarini bevosita shakllantirish - tarbiyaning maqsadi, shakli, uslubi va pedagogik shart-sharoitlari boshqarish orqali amalga oshadi.

Shaxsning ma'naviy, intellektual, ahloqiy-huquqiy harakatlarining rivojlanishida tarbiyaviy ta'sirlarning barqaror, yaxlit bo'lishi muhim hisoblanadi. Chunki, tarbiya jarayonining qonun-qoidalari ijtimoiy-siyosiy jihatdan faol, erkin va teng huquqli, ishbilarmon, tadbirdor, ijodkor mustakil fikr yuritishga qodir shaxslarni voyaga yetkazadi. Ularda burch, mas'uliyat, majburiyat, tafakkur, ong, munosabatlarni rivojlantiradi. Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishning ob'yekтив va sub'yekтив omillari mavjud. Bular sub'yekтив omillar - jamiyatdagi sog'lom muhit, ta'lif muassasalari, jamoat tashkilotlari tarbiya beruvchilar, ota-onalari, mahalla, psixologik muhit, oila, oliy ta'lif muassasalari, ma'naviyat va ma'rifat maskanlari, insoniy munosabatlar kabiladir.

Ob'yekтив va sub'yekティブ omillarning o'zaro aloqadorlikda va bog'liklikda e'tirof etilishi talabada fuqarolik madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolik huquqi asoslarini shakllantirish maqsadi, mazmuni va uslublarining birligi va yaxlitligi shundaki, unda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi faoliyati muhim o'rinn tutadi. Mazmuni esa - bu muayyan narsa hodisa, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari sifati, belgilari, «elementlari, tarkibining yig'indisi

hisoblanadi. Mazmun voqelikdagi narsa, hodisalarning mayjudligini ifodalaydi. Bu o‘z navbatida fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayonining haqqoniyligini ifodalaydi. Uslublar - dunyoni, ilmiy bilimlarini, inson ongingin murakkab hodisalari haqidagi tasavvurlari va uning mazmunini amaliy o‘rganishga ko‘maklashadi. Bunda fuqarolik huquqiyning maqsadi uning tarbiya uslublari orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning munosabatlari ularning uzviylik aloqasini mustahkamlaydi. Demak, uning mazmuni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar munosabatiga bog‘liq bo‘lib, unga ta’sir ko‘rsatish uslublari bir-biri bilan uzviy holda talabaning ahloqiy fazilatlari, bilimdonligi, faolligida muhim o‘rin tutadi.

Demak, talabalarda fuqarolik huquqi asoslari jarayonida uning mazmun-mohiyati, shaxsning ijtimoiy-siyosiy faoliyti, ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligi, ruhiy-individual sifatlari, ijtimoiylik, tarbiya va ta‘lim vazifalari, shakllari, vositalari, ideologik ta‘sirlarini o‘zaro harakatlari va faoliyatlar kabilaming uzviy bog‘liqligi muhim o‘rin tutadi. Bularning yaxlit, bir butun holatda amalga oshishi maqsad va faoliyatni samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuni e’tirof etish joizki, talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirish jarayonida ba’zi bir ziddiyatlar ham uchrab turadi. Mazkur ziddiyatlarning mohiyati shundan iboratki, talaba shaxsida shakllanayotgan muhim ma‘naviy-ahloqiy fazilatlar, dunyokarashlar, ahloqiy-estetik salohiyat doim ham real hayotda uchramaydi. Bunday ziddiyatlarni yengib o‘tish uchun yoshlarda, fuqarolik madaniyatini shakllantirish va bu ishning yagona ular jamoasi jipsligini, yetukligini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Shuning uchun ham talabalarda fuqarolik huquqi asoslарini shakllantirish uning mazmuniga yo‘nalishiga, metodlariga, tashkiliy shakllariga, o‘zaro munosabatlariga bog‘liq hisoblanadi.

Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish ishlarini tashkil qilish jarayonida ilmiy dunyoqarash va ijodiy tafakkur, imon-e’tiqod, inson-diyonat, halollik, mehr-oqibat, saxovat kabi insoniy fazilatlari va ular faoliyatida beparvolik, loqaydlikka yo‘l qo‘yilmaslik holatlari rivojlanadi. Ular qalbida istixor kamol topadi. Shuning uchun ham talabalarda fuqarolik huquqi asoslарini shakllantirish ularda mas’uliyat, ijtimoiy burch kabilarni mustahkamlash bilan birga yot g‘oya va sarqitlarga zarba berish, bugungi tahlikali davrda milliy qadriyatlar, milliy istiqlol g‘oyasiga sadoqatli bo‘lish, milliy urf-odatlar asosida maqsadli tarbiyaviy tadbirlami ishlab chiqish o‘qituvchilarning pedagogik mehnatiga bog‘liq. Bunday tadbirlarni uyushtirishda yoshlarning o‘z bilimi, voqeа-hodisalami

anglashi, ilg'or tajribalarini o'zlashtirishi muhim hisoblanadi. Buning uchun talabadori iqtidor, qobiliyat imkoniyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni, faoliyati kuchaytirish, konservativ kuchlarni yenga olish va niyoyat, faol hayotiy pozitsiyada turishga o'rgatish katta ahamiyatga ega.

Ushbu jarayonlar bevosita talabalarning dunyoqarashi, ma'naviy-ahloqiy salohiyati, fuqarolik burchi, ahloqiy, estetik, jismoni, mehnat, iqtisodiy, huquqiy, fuqarolik burchi bilimlarini shakllantiradi. Bunda talabalarga fuqarolik asoslarining shakllanishi, rivojlanishi va tabiiy imkoniyatlarning ro'yobga chiqarilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaralishiga amaliy yordam ko'rsatiladi. Yaxlit yondashishda-insonning hayot rejalarini, shaxs yo'nalishini, faoliyat va xulqining motivlarini ijobiy ifodalanishi nazarda tutiladi.

Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish mazmuni jamiyatda demokratik printsiplarning qaror topishida, adolatning ta'minlanishida, fuqarolarning o'z-o'zlarini boshqarishini yo'lga qo'yishda va jamiyat, shaxs va madaniyatning uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalar fuqarolik huquqlarini shakllantirish jarayonida ularning ahloqiy- huquqiy manfaatlari, milliy, umumbashariy qadriyatlar ustivorligini ta'minlash inson, jamiyat, taraqqiyot, munosabatlarni kamol topadi. Shuningdek, fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayonida har bir talaba ongida siyosiy bilimdonlik, mustaqil fikrlash, insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy-ruhiy kayfiyat, jamiyatda o'ziga munosib o'rinn egallash, inson qadr-qimmatini himoya qilish va erkin huquqini talab qilish kabilar rivojlaiadi. Buning natijasida talabalarning jamiyat, oiladagi tartib-qonunlarga rioya qilishi, yurish-turishi, ma'naviy yetukligi va madaniylik, hayotda, turmushda, faoliyatda ma'lum darajada ijobiy xulq-odob va faoliyat me'yorlarini namoyon etadi.

O'qituvchi talabadori ijobiy xulq-odob va faoliyat nuqtasini aniqlash asosida uning salbiy xususiyatlarini bartaraf etadi. To'liq shakllanmagan ahloqiy imkoniyatlarning rivojlanishiga yo'l ochadi. O'qituvchi-talabani bilishi, estetik, ekologik, iqtisodiy, ma'naviy qiziqishlarining ijobiy tomonlarini aniqlab, unga tayanish yordamida fuqarolik madaniyatini shakllantirishi muhim hisoblanadi.

O'qituvchi-talabani rag'batlantiruvchi, ishonchga yo'llovchi so'zlar, qimmatli fikrlar va fazilatlarni shakllantirish bilan birga tarbiyaviy jarayonga faoliyatli yondashuvi natijasida ularda moddiy va ma'naviy boyliklarni o'rganish, yaratish, ko'paytirish xususiyatlarini shakllantiradi. Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishda boshqarish,

rejalashtirishni, reja asosida faoliyat dasturini ishlab chiqish, tajribalarni tahlil qilish va ko'rsatkichlarni xulosalash kabilar ko'zlangan natijaning kafolatili bo'lishini ta'minlaydi.

Buning uchun muntazam ravishda talabaning harakter xususiyatlari, qarashlari, qiziqishlarini o'rganish, tarbiyaviy ta'sirlarni tashxislab borish, ularni bilimi yetadigan tadbirlarga jalg etish, shaxsiy faolligiga va qiziqishlariga tayanish, salbiy ta'sir etadigan holatlarni aniqlab, uni ijobiylashtirish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish, o'z-o'zini tarbiyalashning maqsadi, uslubi va shakllarini ishlab chiqish ularning mustaqilligi, tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash o'qituvchilarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishda individual-ruhiy xususiyatlarni hisobga olish ham muhim o'rinn tutadi. Har bir talaba individual shaxs. Unda idrok, tafakkur, nutq, xotira, harakter, iroda, faoliyat kabi xususiyatlar mavjud. Ushbu xususiyatlardan kelib chiqqan holda huquqiy madaniyatni shakllantirishning ijobiyligini ta'minlay oladigan tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish talaba shaxsining individual-ruhiy xususiyatlari, his-tuyg'ulari, burch, mas'uliyat kabilarning tarkib topishiga imkon yaratadi. Bunda talabalarning kuchlari, bilimlarini hisobga olinishi muhim o'rinn tutadi. Xulosa qilib aytganda, talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirish jarayonida muayyan qonunlarga rioya qilib, barkamol avlod tarbiyasining maqsadi vazifasi, mazmunini aniq belgilash, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq, mazmunli, rejali amalga oshirish va shu asosda yoshlarda fuqarolik shaxsini shakllantirish muhim hisoblanadi. Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirish asosida ularning fuqarolik huquqlari, aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatidan rivojlantirish, o'zi istagan kasbni tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada faoliyat ko'rsatish uchun ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratish oliy ta'lim muassasalarining vazifalari hisoblanadi. Chunki, demokratik huquqiy jamiyatda har bir shaxs huquqiy bilimlarsiz to'laqonli faoliyat olib borish uchun ham huquqiy me'yoriy hujjatlarni bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda faqatgina qabul qilingan qonunlar bilan chegaralanibgina qolmay, balki ayni vaqtida ularda yetarli darajada fuqarolik jamiyati haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishi va ularni faol hayotga joriy etishlarini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadi uning ijtimoiy hayotidagi muammolarini hal etishga yordam berishidir.

Chunki, huquqiy madaniyat tushunchasi keng ma'nodagi talqingga ega. Mazkur atama ba'zi holatlarda «shaxs rivojlanishi» tushunchasi, boshqa holatlarda esa «tarbiya» atamasi bilan talqin qilinadi. Undan tashqari fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayonida har bir shaxs o'zini anglash, mustaqil fikr lash va harakat qilishi xususiyatlarini rivojlanadir. Chunki, talaba o'zining ma'lum bir qarashlariga, talablariga, xohish-istaklariga, g'oyalariga ega bo'lgan shaxsdir.

Shaxsni jamiyatsiz, jamiyatni esa shaxssiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shaxs esa tarbiyaga muhtojdir. Shu jihatdan ham talabaning bevosita huquqiy bilimlarni egallashi jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish asosida ularni ijtimoiy munosabatlarga faol kirishish, tajribalarni o'zlashtirish, o'z ta'sirini boshqalarga o'tkazish kabi xususiyatlar shakllanadi. Fuqarolik madaniyatini shakllantirishda talaba faoliyatini ijobiylikka yo'naltiriladi. Albatta unga erishish bevosita tarbiya va ta'lif darajasida amalga oshiriladi. Ya'ni talabaning fuqarolik jihatlari bevosita muhit, o'qish, o'qitish, tarbiya bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda talaba voqeа hodisalarga huquqiy jihatdan to'g'ri, ob'yekтив munosabatda bo'ladi ya'ni, ularda tartib-intizomga, rioya qilish kabilar kamol topadi. Talaba fuqarolik huquqiy shakllantirish natijasida yaxshini yomondan, halolqinharomdan ajratishni, insonlarga yaxshilik qilishni, harom narsalar va ishlardan, birovning haqidan hazar qilishga o'rganadi. Fuqarolik madaniyatini shakllantirish talabada zo'ravonlik kabi yet illatlarga nafrat uyg'otadi. Ularda joniga, moliga qasd yoki, o'zgalarning mulkiga, omonatiga hiyonat qilish kechirib bo'lmaydigan eng og'ir jinoyatlar ekanligi salbiy baholanadi. Ya'ni bunday zid xatti-harakat qilgan shaxslardan jamoa yuz o'girgan va ulardan nafratlanganligi talabalar ongiga yetkaziladi. Albatta bunda shaxsni voyaga yetkazishda yuzaga keladigan kamchiliklarni keltirib chiqaradigan omillarni bartaraf etish, davlat va nodavlat tashkilotlarni, oila, maxilla, oliv ta'lif muassasaliari orasidagi uzviylikni mustahkamlash zarur. Ushbu xakaratlarni amalga oshirish avvalambor, shaxsning ichki hissiyotiga, ichki imkoniyatlariga bog'liй bo'lsa, ikkinchi tomonidan ushbu muammoni hal qilishga davlatni yordamisiz, qo'llab-quvvatlashisiz natijalarga erishib bo'lmaydi. Chunki, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Demak shaxsning huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida ularda qonun va normativ huquqiy hujjalarga nisbatan chuqr hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Talaba shaxsida fuqarolik

madaniyatini shakllantirish jamiyatning ahloq va huquqiy normalarini amaliyotga tatbiq etish o‘z samarasini beradi. Buning uchun talabalar o‘rtasida «Shaxs va qonun», «XXI asrda shaxsning huquqiy madaniyati», «Ijtimoiy muhit va shahsning huquqiy ongi», «Inson faoliyati va qonun» kabi mavzularda tadbirlar o‘tkazish, ichki ishlar hodimlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish, shuningdek «Inson va uning huquqiy faoliyati», «Yangi mutaxassis shaxsining kirralari xususida», «Shaxs va uning mexnati», «Talabaning huquqiy madaniyati» kabi mavzularda referatlar tayyorlash ularni jamiyatda huquqiy jarayonlarining ma’naviy, moddiy yutuqlaridan samarali foydalanishida muhim o‘rin tutadi.

Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishda ijtimoiy fanlar, muhim o‘rin tutadi. Chunki ushbu fanlar asosida har bir shaxs u yoki bu yo‘sinda mazkur davlatning qonunlariga rioya qilish, shuningdek, o‘zlarida huquqiy madaniyatni shakllanganligini, tarbiyalanganligini mezoni sifatida huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlari bevosita huquqiy bilimlarni egalashlari bilan bog‘liqdir. Talaba ijtimoiy fanlarni o‘rganish jarayonida o‘zlarining, xulq-atvorini, ijtimoiy munosabatlarni faoliyatining mazmuni, turli-tumanligini ularga kerak bo‘lgan bilimlar, tajriba, taffakkur bilan rivojlantirib boradi. Bunda talaba o‘zining hattiharakatlarini to‘g‘ri tushunib yetish, o‘rab turgan muhit to‘g‘risida fikr yuritish, o‘z fikriga, dunyoqarashiga, individualligiga ega bo‘lishi, o‘z menligini anglash asosida ijtimoiy hayotda gavdalananadi.

Talaba shaxsida fuqarolik madaniyatini shakllantirishning individual xususiyatlari turlicha, ba’zi birlarida ko‘zga tashlanadigan teran o‘ziga xos xolda bo‘lishi mumkin. Mazkur xususiyatlarni har bir shaxsda ijtimoiy munosabatlар jarayonida mayjudligi u yoki bu darajada bo‘lib o‘z manfaatlarini himoya qilish, o‘z erkinliklariga ega bo‘lish, huquqiy ongini rivojlantirish kabilarni o‘zida mujassam etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Jamiyat va shaxs» bo‘limida shaxs fuqaroviylar jamiyatning erkin, ongli, mustaqil, a’zosi sifatida ta’riflanadi. Shaxsning fuqaroviylar huquqlari va erkinliklarining mustahkamligi hamda zaruriyididan kelib chiqadigan insonparvarlik g‘oyalari Konstitutsiyaga asos qilib olingan. Unda davlat va hukumat, huquq kabilarning xalq uchun xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Demak, talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirish jarayonini amalga oshirishda barcha ijtimoiy fanlar asosiy ob‘ekt hisoblanadi. Chunki ushbu jarayonlar talabaning ruhiy holatlari, o‘ziga xosligini aniqlash va inobatga olish, uning ongiga ta’sir etish orqali huquqiy madaniyatni shakllantirishga asosiy e’tiborni qaratish lozim.

Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida uning faqat tafakkur tarzini emas, ayni paytda xulq-atvorini ham belgilaydi. Shu bilan birga shaxsni tarbiyalashga ahamiyat berildi. Buning natijasida fuqaro «huuqq», «huuquqy ong», «huuquqy tarbiya», «komil inson», «shaxs shakllanishi» kabilarni o'rganish eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ushbu muammoni o'rganish talaba shaxsida fuqarolik madaniyatni shakllantirishning amaliy faoliyatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillarni, eng asosiysi uni ob'yektiv va sub'yektiv ijobiy yoki salbiy voqealarni anglab yetishga tarbiyalashga, ularning faoliyatiga ta'sir etishga yordam beradi. Buning natijasi talaba huuqq va ahloq normalarini o'zlashtirib olish, tushunish va bilish bilan birga o'zlarining kasbiy amaliy faoliyatlarida, hayot tajribalarida qo'llay bilishlarida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatlar talabada umum ijobiy jarayonining bir yo'nalishi bo'lib uning faoliyati bilan bog'liq va uzoq davom etadigan tarbiya jarayoni hisoblanadi. Talabalarda fuqarolik huuqini shakllantirish va nazariy-amaliy muammolarni aniqlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Fuqarolik madaniyatni shakllantirishning nazariy pedagogik asoslarini o'rganish; talabalar faoliyatida huuquqiy yo'nalish jarayonini takomillashtirishda tarbiyaning eng samarali shakl va uslublarini aniqlash; shaxs huuquqiy jihatlarini ta'minlovchi ijobiy, salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash; huuquqiy madainyat fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning poydevori sifatida shaklning va vositalari tizimini ishlab chiqish.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda birinchidan, jamiyat haqidagi ta'limotlar, fikrlar, qarashlar va ularni takomillashtirishni taqazo etuvchi omillar mantiqiy ketma-ketlikda, davr talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy tahlil qilinadi va tavsiflanadi hamda uni nazariy ta'minlashni takomillashtirish borasida ilmiy xulosalar, takliflar, tavyiyalar ishlab chiqiladi.

Ikkinchidan, shaxsning fuqarolik madaniyatni shakllantirish mohiyati, tamoyillari mazmuni, hayoti, faoliyatidagi ahamiyati, ularning ob'yektiv va sub'yektiv omillari bilan bog'liqligi talabalar ongiga yetkaziladi.

Uchinchidan, talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishni ta'minlovchi pedagogik-psixologik omillar aniqlanadi, ularning huuquqni muhitga ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

To'rtinchidan, talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirish jarayonida jamoat tashkilotlari, ijtimoiy institutlar tizimi, huuquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorligining samaradorligi ko'rsatiladi.

Beshinchidan, shaxsning fuqarolik madaniyatni shakllantirish jarayonini o'rganishda ijtimoiy institutlarning faoliyatini takomillashtirish, ularning faoliyatini mazmunan boyitishga ahamiyat beriladi.

Oltinchedan, fuqarolik madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy tarbiya institutlari bo'lgan madaniyat muassasalarining ro'li ko'rsatiladi. Talabalarning yashash, ishlash, dam olish joylarida bo'sh vaqtlarini unumli tashkil eta olishda huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy shart-sharoitlari o'rganiladi.


Yeltinchidan, talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishda huquq normalari, qadriyatlarga suyangan holda amalga oshiriladi, ya'ni bunda huquqiy tarbiya, targ'ibot orqali uning faoliyatiga munosabatlari o'zgarib turadi.

Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish bu uning dunyoqarashi, ahloqiy tajribalari, muloqot va munosabatlarida davlatimiz qonunlarida nazarda tutilgan va kafolatlangan huquqiy ehtiyojlar tizimining muayyan tarzda o'zlashtirish, hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan tajribalar, bilimlarga ega bo'lish demakdir.

Fuqarolik jamiyatni demokratik talablarga ongli ravishda itoat etish har bir shaxsning huquqiy, kasbiy-faoliyat jarayonida shakllangan bilimlar bilan belgilanadi. Shu jihatdan ham shaxs fuqarolik jamiyatida qonunlarini hurmat qilish va ularni og'ishmay bajarish, har qanday qonunbuzarlikka, ahloqsizlikka nisbatan murosasizlik va bunday illatlarga qarshi kurashish talabalarning huquqiy va siyosiy hayotini rivojlantirishga yordam beadi.

Fuqarolik huquqini shakllantirish uning mazmunida huquqiy bilim, qonunga hurmat, e'tibor, qonunchilik va huquqiy targ'ibotni mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlarimizni anglash, saqlash, ehtiyyot qilish, foydalanimish, kelajak avlodning ruhiga singdirishdek xislatlarni tarbiyalash kabilar muhim o'rinn tutadi. Buning uchun o'qituvchilarining «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanidan tarqatma materiallardan foydagtanishlari talabalar bilimini yanada oshiradi.

## I-jadval



## Davlatning funksiyalari

**Davlatning funksiyalari uning mohiyati va jamiyatdagi vazifalarini ifoda etuvchi faoliyatining asosiy yo'hallishlari**

**Iekki funksiyalari:**  
-Qonuniylik asosida fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish ualarning teng huquqligini, jamiyat manfaatlarini ta'minlash,  
-Mulkchilikning turli shakllarini teng himoyalash.  
-Monopolizmni istisno qiluvchi bozor iqtisodiyotini ng rivojlanishmi ta'minlash

**Tashqi funksiyalari:**  
-Tinchlik va barqarorlik uchun kurash funksiyasi;  
-Mamlakatni tashqaridan bo'ladigan hujumdan muhofaza qilish funksiyasi;  
-Jahon hamjamiyati mamlakatlar bilan siyosiy hamdo'stlik,  
-Jahon hamjamiyati mamlakatlar bilan madaniy hamkorlik,  
-Dunyo mamlakatları bilan atrof-muhit, insoniyatning tinchligini muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikning turli shakllari

## **Ma'muriy huquq manbalari**

Konstitutsiyaviy qonunlar;  
O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;  
Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari  
Vazirlar Mahkamasining qarorlari

Vazirliklar va Respublika miqyosidagi boshqa organlarning me'yoriy  
hujjatlari

Mahalliy organlar(hokim) larning normativ hujjatlari

Jamoat birlashmalari - ma'muriy huquq subyektlari;  
Jamoat birlashmaparining turlari;  
Ommaviy harakatlar;  
Jamoat tashkilotlari;  
Jamoatchilik fondlari;  
O'zini-o'zi boshqarish organlari;  
Respublika miqyosida tashkil qilingan jamoat birlashmalari.

Xotin-qizlar, faxriylar.  
yoshlar tashkilotlari va  
h.k.

Mahalliy jamoat  
birlashmalari

## **1.2. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishning tarixiy ildizlari**

O'zbek xalqi tarixida ma'naviyat, huquq va uning normalari bir-biri bilan bog'liq bo'lgan. «Huquq», «Qonun», «Qonunchilik», «Huquqiy targ'ibot» atamalari bir-biri bilan chambarchas holda amalga oshirilgan. Amir Temur bobomiz o'zining faoliyatida davlatning mukammal huquq-normalari qonunlariga ega bo'lish bilan chegaralanmay barcha huquqiy yo'l-yo'rqliarni hayotga, ijtimoiy turmush tarziga joriy etilishiga alohida e'tibor qaratgan. Jahon fuqarolik madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan Burxoniddin Marg'inoniy Movarounnahr fiqh maktabining ulkan asoschilaridan biridir. Ma'lumki, fiqh juda murakkab ilmdir «Fiqh» so'zi arab tilidan «shariatni bilmox, anglamoq» ma'nosini anglatib sha'riy ahkomlar majmuasini ifodalaydi. Xilma-xil fiqh yo'nalishlari bir-birlari bilan uyg'unlashib ketgan. Fiqhda insonparvarlik, Vatan muqaddasligi, to'g'ri va halol yashash qonun-qoidalari, umumiylik, mantiqiylik tamoyillari asosida muvofiqlashgan. Fiqh hayotidagi muammolarni yechishda asos bo'lgan lafz, jinoyat va jazo, oila masalalari, moliya, iqtisod, jamiyat, davlat sohalariga qonuniy yo'lni ko'rsatadigan huquqiy qarashlar tizimidir. Fiqh ilmining jahon tan olgan arboblaridan biri Burhoniddin Marg'inoniy. U yoshligidanoq fiqhshunosli olimlarning asarlarini o'rganib, ularga arxlar yozadi, o'zi ham ilmiy asarlar yaratadi. Shunday qilib, XII asrda yashab o'tgan islom huquqini rivojlantirgan nazariyotchi olim Burhonidin Marg'inoniy merosini olyi ta'lim muassasasida o'rganish dolzarb muammolardan biridir. Zero, allomaning asarlari har bir musulmonni ma'naviy poklik va kamolot sari yetaklaydi. Huquq ahli peshvosi imom Burhonidin Marg'inoniy o'z zamonasida ilm. taqvo va sahiylikda tengi yo'q inson bo'lib, hanasiya mazhabi huquqshinosligini keng yoyishda ulkan xizmat ko'rsatadi. O'z ismi bilan dovrug taratgan imomning «Hidoya» kitobi huquq ilmi borasida o'ta mukammal asar bo'lib, hatto Ovro'pa ilm ahlini hayratga soldi.

Olim XII asrda Farg'ona vodiysida Sirdaryoning chap qirg'og'ida joylashgan islom madaniyatining o'choqlaridan biri bo'lgan Marg'ilon shahrida ilk tahsilini olgаниligi sababli o'z ismiga Marg'inoniy nisbasini qo'shdi. Tahsilning birinchi bosqich tugab, alloma haj safariga otlanadi. Hajdan qaytib kelayotgan Marg'inoniy o'z bilimlarini teranlashtirish maqsadida Marv shahrida to'xtaydi. Bu yerda u Muhammad ibn al-Husayn ibn Nosir ibn Abi ul-Aziz Ziyoud-din al-Bandanijiyyadan hadislar tinglaydi; so'ngra Balxga kelib, buy k hazrat Abu Shujoh Umar ibn

Muhammad al-Bistimoiy ixtiyorida bo‘lgan barcha asarlar bilan tanishadi. Oqibatda allomaga jahon huquqshinosligida katta o‘rin tutgan, shariatni balog‘at darajasida mukammallikka yetkazgan ulug‘ siymo-«Burxonuddin», «Islom va shariatning rad qilib bo‘lmaydigan mutlaq isboti degan faxrli unvon beriladi». Tahsil yillari tugab, Burhoniddin Marg‘inoniy yetuk olim sifatida Samarqandga qaytib keladi va shayxulislom mansabiga tayinlanadi.

Hazrat Burhoniddin ko‘p yillar davomida ilmu - fan bilan shug‘ullanib, fiqhshunoslik sohasida o‘ndan ortiň asarlar yaratadi. Bularning 6 tasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, barchasi fiqh masalalariga bag‘ishlangan, jumladan: «Bidoyat al-mubtadi» (Islomni o‘rganishga yangi kirishganlar uchun boshlang‘ich qo‘llanma). «Kifoyat al-muntahi» (Yakunlovchini qoniqtiruvchi kitob), «al-Hidoya fi sharh ul-Bidoya» («al-Bidoya»ni sharhlashdagi to‘g‘ri yo‘l), «Muxtorot an-navozil» (Tanlangan nozila hukmlar), «Kitob at- tajnis v-al-mazid» kabi asarları mavjud.

Marg‘inoniyning Farg‘ona huquqshinoslik maktabi nafaqat Turkistonda, balki butun o‘rtta asr arab-musulmon dunyosida huquq ilmining yetakchi dargohi hisoblanadi. Millatimizning ma’naviy merosi asosida talaba-yoshlarda ahloqiy-huquqiy bilimlarni shakllantirishda: jahon huquqiy madaniyat taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan o‘rtta asr Sharqi fiqh maktabining asoschisi bo‘lgan Burhoniddin Marg‘inoniyning faoliyati va ijodini o‘rganish; fiqh ta’limotida insonparvarlik, shaxsnинг ijtimoiy mavqeい, kamoloti, ma’naviy poklik, adolat, qadriyatlar hamda davlat boshqaruvida to‘g‘ri yo‘l tutish, oila, moliya, iqtisod, jinoyat va jazo masalalariga to‘g‘ri va halol yondashish qoidalari hamda ijtimoiy-huququqiy qarashlaridan foydalanish.

Burhoniddin Marg‘inoniyning fiqh ilmi haqidagi asarlarini nazariy tahlil etish:

Marg‘inoniy va umuman islom ma’naviy merosini, demokratik qadriyatlarini, insonparvarlik an‘analarini o‘rganish, asosida talabalarda siyosiy ong, madaniyat, huquqiy qonunchilik an‘analarini anglash va ularda millatimizga xos zukkolik, ahillik xislatlarining rivojlantirish.

Burhoniddin Marg‘inoniy fiqh ilmining buyuk namoyandasasi sifatida va uning «Hidoya» asarini o‘rganish.

Allomaning yigirma yildan ziyod nazariy-amaliy faoliyati mahsuli bo‘lgan «Hidoya» asari ma’naviy merosimizda alohida o‘rin tutadi. U islom olamida huquqiy muammolarni hal etishda asosiy qo‘llanma hamda diniy o‘quv yurtlarida muhim darslik sifatida foydalanilgan. Kitobning fors, ingliz, rus va boshqa tillarga tarjima qilinganligi ulug‘ mavlonononig

xalqaro miqyosda shaksiz e'tirof etilganligidan darak beradi. «Hidoya» allomaning boy merosida markaziy o'rin egallaganligi bejiz emas.

Ushbu asar allomaga olamshumul muvafaqqiyat keltirganligining boisi unda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi shariatning bosh masalalari va sharkiy ahkomlarning huquqiy jihatlari haqqoniylar tarzda ifodalab berilganligidir. Asar to'rt jild va to'rt juz', 57 kitobdan iborat bo'lib, birinchi juz'ga asosan ibodat masalalari kiritilgan, qolgan uchta juz' fiqh masalalarini o'z ichiga oladi. 1-jild 5 kitobga to'g'ri keladi: poklanish, tozalanish, ibodat qilish, xayr-ehson qilish, ro'za tutish va haj qilish deb nomlangan kitoblarga bo'lingan.

Burhoniddin Marginoniy bu asari bilan musulmon Sharqining huquq muktabiga tamal toshishni qo'ydi. Asar islom aqidalari, huquqiy va ahloqiy qonun-qoidalari, diniy e'tiqod, oila va nikoh masalalari, huquqiy me'yorlarini bajarmaslik uchun jazo chorasi belgilanishi, huquqshunoslik tamoyillari ilmiy jihatdan chuqur isbotlanganligi bilan ajralib turadi. «Hidoya» musulmonlarning tug'ilishidan to vafotigacha butun turmush tarzini qamrab olgan diniy-huquqiy me'yorlar kitobidir.

Unda hatto inson vafotidan keyin qolgan merosni tasarruf etish va taqsimlashning tartib-qoidalari ham keltirilgan. Kitob hozirgacha jahon huquqshunosligida, islom davlatlarida nodir qo'llanma sifatida qadr-qimmatga egadir.

Asarda fuqarolik huquqi, mulkiy va moliyaviy munosabatlar, jinoiy-protsessual va umuman sud-ijro muammolari, shuningdek, urush olib borish, o'lja olish va taqsimlash huquqi, hayotiy faoliyat taqiplari va ijozatlarini belgilash masalalari batafsil bayon etilgan. Islom allomalar bu kitobni ahamiyati va salmog'iga ko'ra Qur'on va Hadisdan keyin uchinchiligi o'rinda turadigan eng mukammal va maqbul, eng aniq va ishonchli qo'llanma deb tan olganlar. O'sha davrdan boshlab sxohlar, amirlar, xonlar va beklar mamlakatni boshqarishda, davlat ishlariда mazkur kitobdan keng foydalanib kelganlar. Amir Temur «Tuzuklar»i «Hidoya» asosida yozilgan. Sharq va G'arb mamlakatlarining konstitutsiyalari aksariyat holda «Hidoya» asarida e'tirof qilingan to'g'ri yo'l-yo'riqlar, umuminsoniy qadriyatlar asosida tuzilgan. Asarda ota-onalar va qarindosh urug'larni hurmat qilish, hayotda halol, ruhan pok, to'g'ri so'z, saxiy bo'lish, yetim-yesir, yolg'iz onalarga va kambag'allarga muruvvat qilish, omonatga xiyonat qilmaslik, odamlar bilan do'stlikda, birodarlikda yashash kabi yuksak insoniylik fazilatlar ulug'langan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fuqarolik ongini o'stirishda hozirgi zamon qonunshunosligiga oid bilimlar bilan bir qatorda,

xalqimizning huquqiy merosini, fiqh allomalarasi asarlarini targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda: talabalarga halqimizning o'tmish madaniy merosini o'rgatish, tilimiz, an'analarimiz, miliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida ma'lumot berish, ularning mohiyatini anglatish; milliy an'nalar va urf-odatlarni hayotga tatbiq etishning samarali usullaridan foydalanish; Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy kabi siymolarning madaniy merosini talabalar ongiga singdirish; Burhoniddin Marg'inoniying «Hidoya» asari bilan talabalarni yanada chuqurroq tanishtirish; talabalarga diniy qadriyatlar, milliy urf-odatlarni inson huquqlari borasidagi merosimiz bilan uyg'unlashtirgan holda tushuntirish; Burhoniddin Marg'inoniy qadamjolari bo'ylab sayohat uyushtirish. «Din o'zbek xalqi tarixida», «Islom dinining kelib chiqish va mohiyati», «Dinning ma'naviy asoslari», «O'zbek mumtoz adabiyotida dinga munosabat», «Fan va madaniyat», «Sharqning mashhur allomalari», «Zamonaviy ilm fidoiylari» yo'nalishlari bo'yicha shuningdek, «Meros» markazida talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish asosiy muhim ahamiyatga ega. Xususan, talabalarning tarixga, dinga, jamiyat hayotiga bo'lgan qiziqishlari yana ham rivojlantirish, talaba huquqiy adabiyotlarni, huquqiy dalolatnomasi namunalarini to'plash, ularni sharhlash va ular ongiga yetkazish muhim hisoblanadi. Burhoniddin Marg'inoniying ma'naviy merosini o'rganish natijasida talabalarning mustaqil fikrlashi faollashadi. Har bir masalani hal qilish paytida talabalar ongida burch, huquq, ahloq amaliy tushunchalari shakllanadi.

Allomaning «Hidoya» asari talabalarda ahloqiy-huquqiy tushunchalardan tashqari ularning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga ta'sir etib, go'zallikka intilish, jamiyatni anglash, madaniyatli bo'lish singari ijobiy hislatlarni rivojlantiradi. Allomaning ma'naviy merosi xalqimizning milliy iftixor, milliy g'urur, hislatlarini talabalar ongiga yetkazishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyo o'zining buyuk entsiklopedik olimlari bilan butun jahonga mashhurdir. Entsiklopedik olim Abu Ali Ibn Sino faqat falsafa, astronomiya, biologiya, tibbiyotga oid asarlarni emas, ayni paytda psixologiya, huquqqa, pedagogikaga ham taaluqli ilmiy maqolalar yozib qoldirgan (uning mashhur «Yaxshilik va yomonlik to'g'risida»gi risolasi huquq, ahloq-odob, etika, pedagogika muammolariga bag'ishlangan). Bundan tashqari Alisher Navoiy tarbiyaing majburlov uslublarini qoralagan,adolatsizlikka qarshi kurashgan, odillik va

qonunchillikni barcha narsalardan ustun qo'ygan. Shu bois u hammaga haqiqatni oshkora aytgan. Haqiqat to'g'risidagi fikrlarni she'rlarida, dostonlarida bayon etgan. Uning asarlarining mohiyati shaxs tarbiyasiga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini, tarbiyaviylik ma'nosini, mazmunini yo'qotmagan. Yurtimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lgani bois, bu qadimiyl va tabarruk zamindan ko'plab buyuk mutafakirlar, sozil-fuzalolar, olim-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqanligi butun dunyoga yaxshi ma'lum. Buyuk mutafakkirlarining ijodi va ijtimoiy-siyosiy qarashlarida adolat g'oyasi muhim o'rin egallagan. Zero ular dunyoning obodligi, har qanday mamlakat va jamiyat tinchligi, taraqqiyoti va yuksalishining tub negizida adolat turishini yaxshi anglab yetganlar va o'zlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida unga amal qilganlar. Ana shunday buyuk mutafakkirlardan biri ulug' shoir va adolatli davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bo'lib, ul zot o'zining sermaxsul ijodiy faoliyati va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yuksak mavqe bilan butun dunyoda katta shuhrat qozongan. O'zbek xalqi ma'naviy olamining porloq quyoshi va barcha turkiy xalqlarining g'urur-iftixoriga aylangan. Alisher Navoiy ulug' shoir, buyuk mutafakkir va adolatli davlat arbobi sifatiда o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyati va o'lmas g'oyalari bilan xalqimiz qalbidan mustahkam joy egallagan. Uning milliy davlatchilik va davlatni boshqarish usullari, inson va uning jamiyatdagи o'rni, adolatli jamiyat qurish, ijtimoiy birdamlik, komil inson, axlok-odob va ta'llim-tarbiya to'g'risidagi ko'plab ilg'or fikrlari asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, bugungi kungacha milliy o'zligimizni anglash, millatlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash, munosib bilim, tafakkur hamda yuksak madaniyat sohiblari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, mamlakatimiz ijtimoiy-iqqisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov istiqlolga erishgan dastlabki 1991 yilni «Alisher Navoiy yili» deb e'lon qilib, Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi nishonlanayotgan o'sha unutilmas kunlarda bobomiz ruhini shod etish maqsadida mamlakatimiz poytaxti azim Toshkent shahrida buyuk zotning nomi bilan ataluvchi milliy bog'tashkil etib, unda mutafakkir bobomiz haykalini o'rnatib, xalqimizni ulkan bунyodkorlik ishlariga chorlaganliklarida chuqr ma'no mujassam.

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o'z asarlarida adolatli jamiyat qurish uchun har bir inson bунyodkorlik ishi bilan shug'ullanishi lozimligi, shaxsning diniy, axlokiy mukammaligi, eng avvalo, uning yaratuvchanlik xislatlarida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlaganlar. Ul

zotning biz kelajak avlodlar oldidagi buyuk xizmatlaridan biri ham shundaki, adolat tuyg'usini har bir inson, har qaysi xalq va millat intilib yashaydigan oly mezon darajasiga ko'tardilar va odamzodni hayotda adolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga va har doim adolatparvar bo'lishga chorlab o'tdi. Alisher Navoiy qarashlarida mamlakat va jamiyatga, har bir fuqaro va mansabdar shaxs faoliyatiga ahamiyat berilgan. Buni Alisher Navoiy Xusayn Boyqaro sultanatida Bosh vazir vazifasini bajargan davrda mamlakatda avj olgan turli xil ichki ziddiyatlar tufayli sodir bo'layotgan qirg'inlarning oldini olish, mehnatkash xalqning hayotini yaxshilash, jamiyatdag'i ilg'or kuchlarni qo'llab-quvvatlash va adolatli tartib-intizom o'rnatish, hukmdorlarni adolat va insofga chaqirish, insonni ulug'lash va qonuniylikni qaror toptirishga qaratilgan. U xusayn Boyqaroga murojaat etib, davlat va jamiyat oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi uchun insonparvarlikni qaror toptirish muhimligini uqtirgan. O'zi ham davlat arbobi sifatida davlat qurilishi ishlarida faol ishtirok etgan va saroyda tartib-intizomga qat'iy rioya etish masalalariga doimiy e'tibor qaratgan. Alisher Navoi jamiyatda yuzaga keladigan adolatsizliklar ko'pincha amaldorlarning faoliyati bilan bog'liqligini, xalq esa, hamma vaqt adolat tarafdori bo'lib kelganigini, adolatsizlikning markazida esa, mansabdar shaxslarning dunyoqarashidagi chalkashliklar, dini islomning ilohiy talablarini bilmaslik yoki ularga rioya etmaslik, ayshu-ishratga berilish holatlarini ko'rsatib, mansabparastlik illatiga chalingan shaxs vijdon, diyonat, adolat degan muqaddas tushunchalarni unutib, toju-taxtga intilishi va bu borada har qanday jirkanchliklardan ham qaytmasligi, oxir-oqibatda esa davlatchiik tizimiga katta zarba yetkazishini uqdirib o'tgan.

U adolatsizlik bilan qo'iga kiritilgan toju-taxtning umri boqiy bo'limasligini ta'kidlab, shoxlarni va shaxzdodalarni adolatga, qonunchilikka rioya etishga chaqirib, ularni «Temur tuzuklari» va «Zafarnoma»larni o'qib-o'rganishga da'vat etgan va ijtimoiy faoliyatda adolatni bilimsiz tasavvur qilish mumkin emasligini, ya'ni bu narsa qiyin vazifalarni hal qilish va davlatni boshqarishda niyoyatda muhim ekanligini ta'kidlagan.

Ayniqsa, davlat ishlarini boshqarishda adolatsizlik va bilimsizlik bilan berigan hukm-farmonlar fuqaroga ta'sir o'tkazmaydi va ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi, deb hisoblagan.

Shunisi e'tiborga sazovorki, Navoiy qarashlarida adolatli erkin mehnat qilish g'oyasi xam muhim o'rin egallagan. U mehnat qilish har bir kishining insoniy burchi ekanligi, balog'at yoshiga yetgan har bir inson mansabi va kelib chiqishidan qat'iy nazar mehnat qilmog'i zarurligi

to‘g‘risidagi qarashlarini «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazi orqali ifodalab, mehnatning hamma uchun tengligi g‘oyasini ilgari surgan. Ya‘ni shaxzoda, aslzodalardan kelib chiqqan Farhod tinmay mehnat qilgan, ilm, hunar o‘rgangan va o‘z hunarlarini insonlarga bag‘ishlagan. Farhod adolatparvar, yuksak bilim va e’tiqodga ega bo‘lgan olijanob inson sifatida Navoiy tasavvuridagi yoshligidan ilmga xavas qo‘ygani, Suqrotdan dunyo sirlarini o‘rgangani, ilmu hunarning aksariyatining egallab olgani, xalqqa, insonlarga mehri katta ekanini inobatga olganda, u bizning bugungi shijoatli va serg‘ayrat yoshlарimiz uchun ham yuksak namuna, chinakam komil inson obrazi bo‘lib hisoblanadi. Eng muhimmi, Alisher Navoiy adolatparvarlik g‘oyalari umrining oxirigacha sodiq qoldi. Xalq turmushini yaxshilash va obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo‘lgani holda o‘z mablag‘lari hisobidan rabotlar va ko‘priklar, xonaqoxlar va masjidlar, shifoxonalar, madrasalar va xammomlar qurdirib, muxtojlarga xayr-exsonlar ularshib, olimlar, shoirlar va musavvirlarga xomiylit qildi. U faqat vazirlik vazifalari bilan emas, balki yaratuvchanlik, ya‘ni adolatliti erkin mehnat faoliyati bilan ham shug‘ullangan. Bu to‘g‘rida u o‘zining «Vakfiya» asarida batatsil bayon qilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning buniyodkorlik faoliyati to‘g‘risida Zaxiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», G‘iyosiddin Xondamirning «Xulosatul axbor», «Xabibus-sayir», Zayniddin Vosifiyning «Badoeul-vaqoe», Muhammad Xaydarning «Tarixi Rashidiy» asarlarida ham qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Alisher Navoiyning jamiyat kurashi xaqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qtmasdan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda demokratik isloxoxtlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ishlariga dasturilamal bo‘lib kelmoqda. Ulug‘ shoir va buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning adolat to‘g‘risidagi g‘oyalari jamiyatda tinchlik-osoyishtalikni ta‘minlash, ijtimoiy himoya, ta‘lim-tarbiya, ilm-ma‘rifat ishlarini amalga oshirish va inson haq-huquqlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Zaxiriddin Muhammad Bobur siyomisi mana besh asrdirkni, bashariyatning yorqin yulduzlaridan biri sifatida atrofga ezgulik nurini taratmoqda. Bobur o‘z umrini mamlakatini obod etish, xalq faravonigini ta‘minlashdek oliy maqsadga bag‘ishlagani uchun ham buyuklar qatorida tarix zarvaraqlarida qoldi. Uning buniyodkorlik g‘oyalari va ma‘naviy merosi hozirgacha jahon xalqlari tomonidan yuksak qadrlanadi. Shahar va qishloqlarni obodonlashtirish ishlariga alohida ahamiyat bergenining boisi shundaki, insonlar qanchalik go‘zal va obod, gurkirab rivojlangan shahar

va qishloqlarda yashasalar, mehnat qilsalar, shunchalik kayfiyati ko'tarinki, ishlari unumli bo'ladi. Shuning uchun ham ulug' ajdodlarimizning obodlik, faravonlik to'g'risidagi g'oyalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bobur har qanday davlat va jamiyat barqarorligi, yuksalishining tub negizida adolat turishini yaxshi anglagan.

Shu jihatdan ham, Zaxiriddin Muhammad Bobur ijodi va faoliyatida adolat, adolatparvarlik g'oyalari salmoqli o'rIN tutadi. Bobur nafaqat shoir va adib, balki sultanatlardan birining asoschisi va hukmdori edi. U yetuk davlat arbobi, shox sifatida mazkur masalaning naqadar muhimligini boshqalardan ko'ra chuqurroq va yaxshiroq tushungan. Sultanat ishlarida ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilishga intilgan, asarlarida esa bu g'oyalarni targ'ib qilgan. Zaxiriddin Muhammad Bobur o'zining saxiyligi, ximmati bilan alohida ajralib turgan. U sultanatini hayotlik paytidayoq taxt vorisi, to'ng'ich o'g'liga topshirgan Sharqdagi yagona podshox edi. Bobur Alisher Navoiy singari juda ko'p shogirdlarga xomiylik qilib, kamolga yetishiga ko'maklashgan, badiiy ijodga rag'bati borlardan ham iqtisodiy, ham ma'naviy ko'magini ayamagan. Bobur insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviy jihatdan qo'llashga harakat qilgan, marhamatini ayamagan. Boburning misli ko'rilmagan saxovati, Hindiston podsxohlarining xazinasidan ortirilgan boylikni jamiyatning barcha tabaqasiga o'z holiga qarab taqsimlab berishi uning yonidagi barcha kishilar tomonidan Sharq, alal xusus, dunyo sultanatdorligi tarixida misli ko'rilmagan hodisa, jamiyat, ijtimoiy himoyaning oliy darajasi sifatida baholanadi. Yaratuvchanlik Bobur faoliyatining asosini tashkil etgan. Taqdir hukmi bilan umrini olislarda o'tkazishga majbur bo'lganiga qaramay, u temuriylarga xos bunyodkorlik an'analarini dastlab Xuroson, so'ngra Hindistonda davom ettirdi: ariq va kanallar qazdirib, suv keltirdi, bog'-rog'lar barpo etdi, yo'llar, karvon saroylar, muxtasham inshootlar qurdirdi. Ayniqsa, bu ulug' zotning ilmu fan, madaniyat va san'at, dinu diyonat xomiysi, adolatparvar hukmdor sifatida amalga oshirgan ishlari barchamiz uchun ibrat namunasi bo'lib xizmat qilishi shubxasiz. U mana shunday fazilatlari bilan o'z naslining shuxratini yanada yuksaltirdi, dunyo xalqlarining mehrini qozondi.

### **1.3.Talabalarda fuqarolik huquqlarini rivojlantirish shakllari**

Respublikamizdagi barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar va huquqiy organ hodimlari fuqarolarga huquqiy bilimlarining mazmunini tushuntirib berish, targ'ib qilishni o'zlarining asosiy vazifalaridan biri deb biladilar. Ushbu tadbirlarning asosida shaxslarni huquqiy jihatlari, jamiyatda yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar mohiyatini talabalar o'rtasida ham targ'ibot-tashviqot qilib kelmoqdalar. Ba'zi bir oliy ta'lif muassasalarida tashkil etilgan huquqiy madaniyat markazi talaba o'rtasida spirtli ichimliklar, giyohvandlikka qarshi kurash targ'ibotini amalga oshirmoqda. Markaz hodimlari talabaning fuqaroviy faolligini oshirishda tartibini saqlashda faol ishtirok etmoqdalar. Huquqiy madaniyat markazida talabalarga O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid tarbiya, huquqiy, siyosiy, yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda. Fuqarolik jamiyatining qonunchilik hujjatlarini o'rganish mehnat, turmush va bo'sh vaqtarda sodir etiladigan huquqbazarliklarga qarshi kurashishga oid yusushtirilgan tadbirlar talabalarning ittifqagini mustahkamlashga, huquqiy ongini uyg'otishiga yordam beradi. Shu jihatdan ham fuqarolik jamiyatining maqsad va ma'nosini barcha talabalarga yetkazish oliy ta'lif muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish mohiyatini talabalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot qilish, ularga mehnat qonunchiligi to'g'risidagi hujjatlarni tushuntirish nafaqatgina mutaxassislarining vazifasi bo'libgina qolmay, balki oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilaming burchi hisoblanadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini targ'ibot va tashviqot qilish fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning asosini tashkil etadi. Buning uchun oliy ta'lif muassasalarida huquqiy ma'rifiy ishlarni tashkil etish targ'ibotlarini amalga oshirish talabalarning huquqiy siyosiy jihatlarini yanada takomillashtiradi. Bunday markazlar talabalarning demokratik haq-huquqlari va burchlarini himoyalash vazifalarini to'g'ri tushunishga imkoniyat beradi. Ayniqsa talabalar turar joylarida huquqiy targ'ibotlarni amalga oshirish, ma'ruzalar o'qish, suhbatlar o'tkazish, huquq maslahatchilarining talabaning savollariga javob berish, doimiy ravishda huquqiy masalalari bo'yicha maslahat berib borish, fuqarolik madaniyatni mustahkamlash eng qulay shakllaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, soha rahbarlari, xo'jalik yurituvchilar, ishlab chiqarish korxonalari, fermer, hokimiyat rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlari hodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazish talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim o'rinn tutadi. Mutaxassis! - tomonidan olib boriladigan ma'ruzalar

talabalarning huquqiy bilimlariga ta'sir etib, davlat va halq mulkini qo'riqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu jarayon talabalarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bilan birga ularning erkinlikka, huquqqa, madaniyat sari intilib borishlariga aniq yo'l- yo'riqlar ko'rsatadi. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasalarida huquqshunoslar bilan talabalar uchrashuvlarini tashkil etish, ularning huquqiy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi shakllaridan hisoblanadi. Resiublikada qabul qilingan qonunlarning dolzarbligini, «Soglon ona va bola yili» davlat dasturini talaba ongiga yetkazish tufayli ular, o'z haq-huquqlarini, hayotdagi o'z o'rirlari uchun kurashish zarurligini bilib oladilar. Bunday jarayonlar huquqiy tarbiya va huquqiy tashviqot ishlari bilan shug'ullanishni yanada rivojlantirishni talab etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bunday ishlar shoshilinch va stixiyali ravishda, amalga oshirilishi tadbirlar miqdorining ketidan quvish ularning sifatiga salbiy ta'sir etadi. Shu jihatdan ham bunday tadbirlarda fuqarolik jamiyatini targ'ib qilish va huquqiy tarbiyani uyushtirish uchun ma'lumotli hodimlarni taklif etish bevosita bo'lajak mutaxasislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Talabalarda fuqarolik jamiyatni mustahkamlash uchun huquq va burchlarini shaxsning hukuqiy va O'zbekiston Resiublikasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'nalishlarini fuqarolik jamiyatini yo'nalishlarini chuqur o'rganish, aholi va talabalar o'rtasida tashviqot targ'ibot ishlarini olib borishda yangi shakl va usullarini joriy etish, yangi qabul qilingan qonunlarning jarayonlarini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga talabalar vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish, ayni paytda ularni jamiyat hayoti va qonunlarni tushuntirib borish, muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda huquqiy tartibotning shakl va usullari mazmunini boyib borishida yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Ular talabalar o'rtasida huquqiy tarbiya ishini faollashtirishda davlatning muhim vazifalarini amalga oshiradilar.

Talabalarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish o'rganish bugungi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishda oliy ta'lim muassasalarining ish tajribasini tahlil etishda, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishda samarali natijalarni ko'rsatmoqtsa. Chunki, fuqarolik madaniyatini shakllantirishga oid shakl va usullarni rivojlantirish va boyitish vosita-usullardan foydalanish, ma'ruzalar, suhbatlar, uchrashuvlar, ovoz chiqarib o'qishlar, talabalarning huquqiy tarbiya yo'nalishiga oid bilimlarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunda professor-o'qituvchilar doimiy ravishda talaba shaxsida huquqiy tarbiya mazmunini

takomillashtirib, boyitib borishlari maqsadga muofikdir. Ayniqsa, talabalarda badiiy vositalar, xujjatdi manbalar, ko'rgazmali targ'ibot-tashviqot, kino, televideniyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda oliv ta'lum muassasalarida tashkil etilgan huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari, huquqiy mavzulardagi suhbatlar, tadbirlarning mazmunini tushunarli tarzda amalga oshirilishi, ularda yangi g'oyalar, qonunlar, haqidagi ma'lumotlarni egallashga yordam beradi. Yangi huquqiy, siyosiy talablar, halqni asriy urf-odatlari, an'analar ahloq normalari talabaning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish shakllantiradi.

Talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirish mustaqillikning muqaddas ramzları «Davlat tamg‘asi», «Davlat bayrog‘i», «Davlat gimni» ni qadrlashga o‘rgatish, O‘zbekiston Respublikasi bilan g‘ururlanish, unga cheksiz hurmat, sadoqatli bo‘lish, davlat mukofotlari- orden, medallar, faxriy unvonlarning mazmun moxiyatini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishda milliy an'analar, urf - odatlari, shaxslararo va millatlararo muomila munosabatlari, umuminsoniy qadriyatlar, jamiyat huquq va erkinliklarga, ahloqiy normalariga amal qilishda muhim hisoblanadi. Chunki, milliy urf-odatlari asrlar davomida avloddan- avlodga o‘tib, odamlar tomonidan, amal qilinadigan xulq-atvorning shakllangan usullari hisoblanadi. Milliy urf-odatlari, udumlar, ijtimoiy turmush tarzi qoidalari, g'oyalar, qadriyatlar xulq- atvor normalari shaxs ongiga ta'sir etadi. Milliy urf-odatlari odamlar hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Ular kishilarning ijtimoiy munosabatlari va xulq- atvorlari tartiblashtirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar hisoblanadi. Har bir xalqning eng yaxshi yangi va ilgor jihatlarini o‘zida singdirgan urf-odatlari va an'analar muhim tarbiyaviy vazifani bajarish bilan birga ahloq- odob normalarini shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunda milliy urf-odatlari va an'analar, shaxs va jamiyat talablarini amalga oshiradi. Milliy urf-odatlari, an'analar o‘z nufuzi, o‘zining jamiyat uchun alohida qiymatga ega bo‘lgan sifat xususiyatlari vositasida ta'sir o‘tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish jarayonlarini amalga oshiradi. Buning natijasida yoshlarning jamiyatdagi o‘z o‘rni haqida to‘g‘ri tasavvur, mustaqil fikr, qarorlar qabul qilishga, davlat va hukumat qarorlarini bajarishda ishtirok etadilar. Talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirish munosabatini shakllantirish bu barkamollikdir. Shu jihatdan ham talabalarda O‘zbekistonning kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan bozor iqtisodiyoti ijtimoiy munosabatlarni ongli

ravishda davlatning yoki boshqa sub'ektlaming aralashuvisiz uning ichki dunyosi, ishlari , faoliyatini rivojlantiradi.

Talabalar tomonidan qonunlarni o'rganish muhini ahamiyatga ega. Chunki qonun xulq-atvorni tartibga soluvchi birdan-bir ijtimoiy vosita emas, ayni mahalda har bir fuqaroning huquqiy madaniyatiga yordam beradigan kuchdir. Fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayonida qonunlarning faqat o'zi yetarli bo'lmaydi. Bundan tashqari huquqiy tashviqot va targ'ibot, huquqiy tarbiya, madaniyat muassasalaridagi huquqiy mavzuga bag'ishlangan tadbirlar ham yordam beradi. Fuqarolik madaniyatni shakllantirishdan tashqari shaxsning ma'naviy darajasi ham rivojlanadi.

## **2- bob. TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI**

### **2.1. Ta'lim jarayonida talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish**

O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish, aholi madaniyatini yuksaltirishda qonun ustuvorligi, qonunga itoatkorlik va qonuniylik printsiplari, demokratik qadriyatlar xalq ommasining jamoat birlashmalari, siyosiy partiylar va nodavlat notijorat tashkilotlar orqali inson huquqlari va erkinliklari amalga oshirilmoqda. Buning natijasida fuqarolarning o'zaro huquq va burchlari ma'sulligi rivojlanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda jamiyat taraqqiyotidagi qonun va qonun osti me'yoriy huquqiy hujjatlari inson manfaatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shaxs madaniyatining barcha hislatlari bevosita jamiyat taraqqiyotining barcha tarkibiy qismlariga ta'sir etadi.

Demak, fuqarolik madaniyatni shakllantirish murakkab, ko'p qirrali bir maqsad yo'lliga qaratilgan faoliyat bo'lib, uning rivojlanish jarayoni talaba shaxsining ongi, psixologiyasi, sezgisi, ahloqiga ta'sir etadi. Talabalar bilan ommaviy tarzda auditoriyada olib boriladigan mashg'ulotlar yakka tartibda fuqarolik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar eng avvalo oilada bogchada, mакtabda, litseyda, kollejda, oly o'quv yurtlarida va qolaversa, o'zini ustida mustaqil ishlash jarayonida, mahallada va ishlab chiqarish jamoalarida rivojlanadi. Ularni ijtimoiy faoliyatda ko'rish mumkin.

Talabalar barcha fuqarolik bilimlarini ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida foydalilanadi. Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayoni keng tushuncha bo'lib, bunda ong, munosabat, huquq, ahloqiy bilimlar amalga oshiriladi. Huquqiy targ'ibot, tashviqot, huquqiy ta'limi o'z ichiga qamrab oladi. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish o'qishga kirgan kundan boshlab, ichki tartibiga rioya qilish va o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Fuqarolik bilimlarni egallash tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Hukumat qarorlarining hayotga og'ishmay tadbiq qilinishini ta'minlashda, qonunlarga bo'ysinishda, ularni so'zsiz bajarishga mas'uliyat bilan yondashiish ularning qay darajada huquqiy bilimga, huquq normalariga munosabati, huquqiy madaniyatining

shakllanganligidan dalolat beradi. Undan tashqari talabalarni fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ularning hayoti, sog'ligi, or-nomusi va qadr qimmatini himoya qilish, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida har bir shaxsning roli, huquqlari, umumiy majburiyatlari, javobgarligi rivojlantiriladi.

Fuqarolik madaniyatning mohiyati ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Huquqiy bilimlar har bir talabada huquq va burchlarini chuqurroq anglashga yaqindan yordam beradi. Talabalarni fuqarolik madaniyatini shakllantirishda differensial yondashuv muhim hisoblanadi.

Chunki, 17-18 yoshdagi hali huquqiy bilimlarning mohiyatini chuqur anglab olmagan 1- bosqich talabasi bilan 21-22 yoshdagi, ya'ni 4-bosqich talabasining bilimlarida farqi kattadir. Chunki 4-bosqich talabasi rasmiy jihatdan oliy ma'lumotga ega bo'layotgan shaxs hisoblanadi.

Ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish ahloqiy tarbiya va kasbiy mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Albatta, bunda fuqarolik madaniyatini shakllantirish mazmuni, mohiyati har bir talabada, namoyon bo'ladi.

Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga ham bog'liq. Ob'yektivligi shundaki, ijtimoiy muhitda, talabani to'g'ri tushunish, har birining xatti-harakatini to'g'ri baholay olish, boshqa salbiy harakterdagi shaxslarining tashviqotiga berilmasligi kabilardir.

Sub'yektiv sababi shundaki, o'zida xohish yo'qligi, o'qishga jiddiy munosabatda bo'lmaslik, o'qish mohiyatini to'la tushunib yetmaslik, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishni o'zi xohlamasligi kabilardir.

Talabada fuqarolik ongini shakllanishi, avvalo uni o'rab turgan muhitga, professor- o'qituvchilarning qay darajada bilimlarni egallaganligi, tarbiyalanganligiga, kasbiy darajasiga ham bog'liqidir. Buning natijasida talabaning ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni shakllantirish, o'tkazilgan tadbirlar bilan chegaralanib qolmay, aksincha targ'ibot- tashviqot tarbiya ishlarini, murabbiylar tomonidan amalga oshirish zarur.

Talabalar o'qishdagi, turar joydagi, umuman ko'chaga chiqqan vaqtdagi huquqlarini yaxshi bilishlari bilan birga burchlarini ham unutmasliklari kerak. Chunki, burch bilan huquq doimo egizak. Shu jihatdan ham fuqarolik huquqlarini shakllantirish mazmuniga eng avvalo talabalarning huquq va burchlari ham taaluqlidir. Huquq va burchlarini yaxshi bilish, unga rioya qilish jamoat ishlarida faol qatnashish kabilar

talabalarning faolligini oshirishga yaqindan yordam beradi. Demak, talabalarning fuqarolik ongini, huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy bilimlarning roli katta. Chunki, ular bevosita ahloqiy va huquqiy bilimlar majmuasi bilan ham bog'liqdir.

Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishda odob-ahloq qoidalari ma'naviyat darslari, suhbatlar, ijtimoiy-siyosiy o'qish, ijtimoiy-siyosiy tadbirlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, talabalarning o'z huquq va burchlarini bilishi qonunga, kun tartibiga itoat etadi degani emas, balki ularning mohiyatini tushunish va rioya qilish demakdir. Ba'zi bir shaxslar qonunlarni, o'z huquqlarini yaxshi biladi. Lekin qonunga rioya qilishga, burchlarini bajarishni ongli ravishda xohlasmaydi. Bunday toifa shaxslar hamma joyda mavjud. Shuning uchun ham talabalarning qonunlarni bilishi ularning huquqiy ongini rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi. Natijada talabalarda qonungá ishonch, huquqiy madaniyat, dunyoqarashi kabilarning mohiyatini to'g'ri tushunish, to'g'ri ijrosi ta'minlanadi. Talabalarning huquqiy tajribaga ega bo'lismi bir umr o'zini ustida ishslashni talab etadi. Bular bevosita talabalarning irodasi, psixologiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Qonunga bo'lgan hurmat har bir shaxsni ichki ruhiyatini aks ettiradi. Bunda o'qish faoliyati, huquqiy va ahloqiy bilimlar, kasb madaniyatini rivojlantirish, yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishda faol bo'lismi kabilalar ongini rivojlantiradi.

Natijada ularga nafaqat o'quv jarayoni, shuningdek amaliyot ham o'zining katta ta'sirini o'tkazadi. Ular amaliyot jarayonida o'z mutaxassisligi haqida ma'lumot va ta'surotga ega bo'ladilar. Nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llaydilar. O'qishga yanada mas'uliyat va qiziqish bilan munosabatda bo'ladilar. Albatta ushbu jarayonni to'g'ri tashkil etish o'qituvchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Kafedralardagi uslubiy xonalarning faoliyatini to'g'ri tashkil etish muhim o'rinn tutadi. Ijtimoiy muhit ongni belgilaydi Oliy ta'lim muassasalarida, talabalarida o'quv bo'limi, ma'rifiy ishlar, murabbiylar, ota-onalar bilan bevosita hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish o'z samarasini beradi.

Talabalarda fuqarolik burchi va vazifalarini savodxonlik va hayot tajribalari asosida amalga oshirish, qonun doirasida harakat qilish o'zining faoliyati maqsadli bo'lismini ta'minlaydi. Talabalarning bilimlarini amaliyot bilan bog'lash axborotlar, umumlashmalar, statistik ma'lumotlardan samarali foydalanish mashg'ulotlarni olib borishda, kurs ishi, diplom ishlarini yozishda, ta'lim jarayonida yaxshi samara beradi.

Chunki, talabalarning bitiruv malakaviy amaliyoti ulami fuqarolik burchini shakllantirishning asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Ular amaliyot davomida mutaxassislik faoliyati va real sharoitlari bilan bevosita tanishadi. Alovida xizmat topshiriqlari va ko'rsatmalarni bajarish, o'zlarining kasbi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bevosita kasbiga yaqin bo'lgan ish o'rganish amaliyoti esa 3-kurs talabalarining mutaxassisliklar bo'yicha belgilangan lavozimlarda amaliy ko'nikmaga ega bo'lish maqsadida o'tkazilishi belgilanadi. Ish o'rganish amaliyoti kasbiy faoliyatiga uyg'unlashuvining muhim vositasи hisoblanib, uning asosiy vazifasi bilimlarni takomillashtirish, amaliyotning ilg'or tajribalar bilan tanishishdan iboratdir. Talabalarni malakaviy amaliyotidan katta ijobjiy natijalarga erishish uchun berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan rioya etish o'qish jarayonida olgan bilimlarini yanada mustaxkamlaydi.

Malakaviy amaliyot sifatli tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishlari, boshqacha qilib aytganda, «ustoz-shogird» qoidalariga to'la rioya qilishlari muhim hisoblanadi. Talabalarning har biriga qaysi mutaxassislik turiga moyilligi haqida amaliyot yakunida tavsiyanomalar beriladi. Bunda o'qitishning interfaol usullarini qo'llash, o'quv jarayoniga eng so'ngi texnik vositalarni jalb qilish kutubxona fondini yangi ijtimoiy adapbiyotlar bilan to'ldirib borish, o'z samarasini beradi. Buning uchun bilimga chanqoq bo'lgan iste'dodli talabalarni topish, ularni o'qishga qabul qilishda ob'yektiiv adolatliti tizim va tartib o'rnatish yetarli ma'lumot olishlari uchun barcha zamonaviy imkoniyatlarni yaratish muhim hisoblanadi. Amaliyotning o'ziga hos taraflari shundaki har bir talaba maxsus fanlar bo'yicha nazariy bilimlarni o'rganishdan avval bu borada muayyan amaliy tushunchaga ega bo'ladi.

Talabalar tomonidan qonun ijrosini to'gri ta'minlash-bu qonunga to'g'ri rioya etilganligidan dalolat beradi. Talabalarning huquqiy bilimlarga ega bo'lishi ularning ijtimoiy faoliyati, turmush tarzi, ongi, madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

## **2.2. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish bosqichlari va murabbiy mahorati**

Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish dastlab bilim dargohlarida shakllanadi. Buning uchun har bir pedagog, ustoz, murabbiy bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash bilan bir qatorda mustaqil va keng fikrlesh qobiliyatiga ega bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim hisoblanadi. Bu esa ta’lim orqali talaba faoliyatini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Bunday talab dars jarayonida samarali o‘qitish ta’limning mazmuniga, o‘qituvchi va talabaning hamkorligiga bog‘liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas’uliyatni, faoliyatni talab etadi. Bunday hamkorlik har bir darsda o‘qituvchidan maqsadni aniq ko‘ra bilishni, shuningdek amalga oshiriladigan vazifalarni to‘g‘ri belgilab olishni talab etadi.

Har bir dars jarayonida ta’lim mazmunining ilmiyligi, izchiligi va talabalarda o‘rganiladigan bilimga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Fuqarolik bilimi, ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. O‘qituvchi talabalarning bilimlariga e’tibori kuchli bo‘lsa, uning ongi va saviyasi kengayib boradi. O‘qishda an‘anaviy dars turlari keng ommalashtiriladi. Lekin bugungi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullaridan foydalanish, talabaning bilimlarga bo‘lgan qiziqishlari, ehtiyojini qondirish, masofali o‘qitishni to‘gri tashkil etishni talab etmoqtsa. Ularni o‘qitishda darslikdagi manbalarga, ommaviy axborot vositalari materiallariga, amaliy faoliyatda uchraydigan turli muanimolarga asoslash muhim hisoblanadi. Bunda talabalar o‘rgatilayotgan mavzuning mohiyatini amaliy faoliyatida, yozma shakldagi mustaqil ishlarda nazariy bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlaydilar. Bunda o‘qituvchi talabalarning ruhiyatini hisobga olishi, darslarni qanday tarzda tashkil etilishidan qat’iy nazar uning bilimlarini amaliyotga tatbiq eta bilishi zarur. O‘qituvchi darslarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida matbuot va ommaviy axborot materiallaridan foydalanadi. Buning natijasida talabalar ongini shakllantirishdag‘i muammoli savollarga, vaziyatlarga javob topishga o‘zining mahorat va keng ko‘lamli bilimi, tajribalariga asoslanadi: chunki, o‘qituvchi dars jarayonida talabalarda erkinlik, mustaqil fikrlesh, hurmat qilish, muloqot madaniyati, o‘z mulohazalarini, qarashlarini himoya qilish, ularni boshqalarga yetkazish, o‘z-o‘ziga talabchanlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish mas’uliyati, ijodkorlik, qiziqish ma’naviy muhit kabilarni shakllantiradi. Mustaqil ishda talaba o‘z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi. o‘z nuqtai nazari, qarashlari ni shakllantiradi, dunyoqarashini

namoyon etadi. Dars jarayonida turli manbalaridan foydalanish natijasida talabalarda bilimlarini chuqur o'rganish ko'nikmasi shakllanadi. Bu esa o'z navbatida ular bilimlarini shakllantirishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Dars jarayoni ta'lif tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shu jihatdan ham darsni samarali va qiziqarli qilib tashkil etish, turli ko'rgazmali qurollardan, no'anaviy vositalardan foydalanish talaba shaxsiga ta'sir etuvchi muhim omillar bo'lib hisoblanadi. Talabalar fuqarolik huquqlarini shakllantirishni uch bosqichga ajratish mumkin.

Birinchidan, o'spirinlik davrida uning ilk fuqarolik tushunchalarning shakllanishi birinchi navbatda oilada, ota-onasi va oilaning boshqa a'zolari, maktabgacha ta'lif, maktabdan tashqari madaniyat muassasalarida, turli ko'rgazmali vositalar ta'siri ostida shakllanadi.

Ikkinchidan, ularning fuqarolik bilimi dastlab boshlang'ich, o'rta ta'lif maktablarida, akademik litseylar, kasb- xunar kollejlari, oliy ta'lif muassasalarini shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan targ'ibot- tashviqot ta'sirida shakllanadi.

Uchinchidan talabalar ta'lif olayotgan o'quv yurtida, jamoat tartibini saqlash faoliyatida, ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirilayotgan targ'ibot va tashviqotlar ta'siri natijasida rivojlanadi.

Fuqarolik tushunchalari 3-6 yoshli bolalarda o'yin tarzda tarbiya berish jarayonida namoyon bo'ladi. 7-16 yoshlarda esa ta'lif tarbiya, 17-25 yoshlarda ta'lif- tarbiya olish, mustaqil tayyorgarlik, amaliy faoliyat, 25 va undan yuqori yoshlarda esa malaka oshirish, mustaqil tayyorgarlik, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxsning fuqarolik ongi makro va mikro muhitda, milliy urf-odat, turmush tarzi, odob-ahloq, qadriyatlar, ta'lif-tarbiya jarayonida hayotdagি hodisa, voqealar va munosabatlarni kuzatish, qabul qilish va anglash orqali yuz beradi.

Bugungi kunda talabalarning fuqarolik ongi va madaniyati muntazam bilim olishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar, ma'naviy- ahloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga bo'lgan munosabat natijasida shakllanadi. Oliy ta'lif muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish mazmuni va uni amalga oshirish jarayonida kasbiy bilimlari rivojlanadi. Ushbu jarayonda talabalar o'zlarning huquqlari va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab «Xalqaro xotin-qizlar kuni», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» kabi bayramlarni tashkil etishda talabalar bevosita va bilvosita ishtirok etishadi. Ushbu tadbirlarda ular ong bilan mas'uliyatli faoliyat ko'rsatadilar. Murabbiyining

psixologik tayyorgarligi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni qo'lga olish kabi xislatlar bo'lishi talabalarning bilimi, ongi, fikrlashi, ishi bilan so'zining birligi kabilarni rivojlantiradi. Talabalarning har tomonlama kamolot cho'qqisiga erishishda fakat bilimlar emas balki ahloqiy-siyosiy, estetik qarashlar dunyoqarash, muomala madaniyati, yuksak odob-ahloqqa ega bo'lishlari muhim o'rinni tutadi.

Murabbiy talabalarini tarbiyalashda ularning dam olish va sport o'yinlari musobaqalarini o'tkazish bo'yicha ish rejalarini tuzishi, anketalar o'tkazishi, ro'yxatga olish, bayonnomalarni saqlashi muhim o'rinni tutadi. Murabbiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda kompleks rejasiga ega bo'lishi bir-birini mazmuni jihatidan boyitadi va muammoni yechish yo'llarini topishga yordam beradi. Tarbiyaviy tadbirlarning dasturini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish talabalarda o'z kasbiga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, muhitga ruhiy moslashishiga yaqindan yordam beradi va ichki hissiyotini tartibga soladi. Tadbirlarining yana o'ziga hosligi shundaki, uning maqsadi komil insonni tarbiyalashdir. Tadbirlar talaba shaxsining ongiga ta'sir etish orqali ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirishga bevosita yordam beradi. Tadbirlarni olib borishda murabbiyning o'ziga xoslik, temperament, ahloqiy, psixologik holat har bir talaba shaxsining qobiliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishiga yordam beradi. «Zakovat», «O'tkir zehnlilar», «Kim kuchli», «Kuch tafakkurda» kabi talabalar bilan o'tkaziladigan tadbirlarda ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olish bilan birga hislatlarni bartaraf etish uchun imkon yaratadi. Tarbiyaviy tadbirlarning natijalarini talaba shaxsi xatti-harakatida, muomalasida, uni oldiga qo'ygan vazifalarni hech bir muammosiz hal qilishda ko'rish mumkin. Talabalar orasida olib boriladigan bunday tadbirlar ularning xatti-harakatida, o'qishdag'i salbiylik holatlarini bartaraf etishda muhim hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish nafaqat talabaning dunyoqarashiga, bilim darajasiga, eng asosiyasi, hoxishiga, qamrab turgan muhitga ham bog'liq. Chunki, ijtimoiy muhit ongni belgilaydi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda talabaga differensial yondashish alohida rol o'ynaydi. Ya'ni ba'zi bir talaba o'zining qaysarligi bilan ham ajralib turadi. Chunki yon-atrofdagi talabalar oldida o'zini mavqeini ko'rsatishni ham xohlab qolishadi. Shunday holatlarda talabalarning o'zini anglashdagi xususiyatlari e'tibor qaratish va o'zini-o'zi anglashdagi ta'sirchanligi bilan farq qilishi muhimdir. Shuning uchun tarbiyaviy ishlarni olib borishda talabalar jamoasiga suyanish muhim hisoblanadi. Chunki, jamoaning shaxs ongiga ta'sir kuchi kattadir. Murabbiyning faoliyati bevosita talabalar orasida vatanparvarlik, kasbiy

mahoratni shakllantirish, birdamlik, bir-birini hurmat qilish, bir-biriga yordam berish xislatlarini shakllantirishga asosida olib boriladi. Bundan tashqari murabbiy ijod bilan shug'ullana oladigan talabalar bilan axborot resurs markazida bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish sog'lom muhitni yuzaga keltirish kabilarni tashkil etadi. O'zini tutib olgan, o'zini-o'zi har qanday sharoitda ham boshqara oladigan talabalar murabbiy bilan hamkorlikda jamoa faoliyatini tashkil etishda faol ishtirok etadilar. Buning uchun murabbiya tashkilotchilik, pedagogik, komunikativlik qobiliyatlarining bo'lishi muhim hisoblanadi. Chunki, tashkilotchilik qobiliyatida o'zini xatti-harakatini, faoliyatini namoyon etadi. Kommunikativ qobiliyatida murabbiy kasbiy faoliyatida talabalar bilan tez va to'g'ri munosabatga kirishish uchun ularning qalbiga yo'l topadi. Talabalarning muvaffaqiyati avvalambor murabbiy tomonidan vazifalarni to'g'ri qo'yilishiga bog'liqidir. Murabbiy kommunikativ faoliyati rasmiy va norasmiy muomalada ham bo'lish mumkin. Rasmiy munosabatlar asosan xizmat vazifani bajarishda, rasmiy topshiriqlarni amalga oshirishda bog'lovchi kuch hisoblansa, norasmiy munosabatlar badiiy havaskorlik to'garaklaridagi hamkorliklarda bo'lishi mumkin. Bu hamkorlikning asosini tarbiyaviy ishlarni olib borishda murrabbiy talabalarning tajribalaridan ham ko'p narsani o'rganishlari mumkin. Tarbiyaviy ishlarni to'g'ri yo'iga qo'yilishi murabbiy kasbiy faoliyatining samarasini belgilaydi. Psixologik-pedagogik bilimlar mazmunini to'ldirishga yordam beradi. Murabbiy tarbiyaviy ishlarni jarayonida talabalarning nima sababdan o'qishga kelmayotganligini yaxshi bilishi, uning xatti-harakatini tahlil qilishi, bunday salbiy xatti-harakatning sababini o'rganish muhim o'rinn tutadi. Ba'zi bir murabbiylar talabalarining bitta yoki ikkta salbiy xatti-harakatini ko'rib, tahlil qilib ular haqida salbiy fikr qilishi mumkin. Bu aslida to'g'ri emas, chunki talabaning faoliyati, harakterini bilish qiyin hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni jarayonida ba'zi bir talabaning ziddiyatliligi, qaysarligini, o'ziga xosligini o'rganish orqali unga ta'sir etish usullari izlanadi, aniqlanadi ham o'rganiladi. Talabalar ruhiyatidagi ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirish tarbiyaviy ishlarning asosiy g'oyasi hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarning mohiyatida ketma-ketlik, mantiqiylik kabilarning tashkil etish murabbiy faoliyatiga ham bog'liqidir. Tarbiyaviy tadbirdorda adabiyot, san'at asarlaridan ham bevosita foydalanish mumkin, chunki insонни go'zallik qutqaradi.

Go'zallik yaxshilikka oshno qiladi. Shuning uchun ham talabalarni tarbiyalashda san'at asari, teatr, adabiyot kabilalar muhim hisoblanadi. Talabalar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishda eng avvalo ular faoliyatini

o'ziga xosligini hisobga olish kerak. Bunda talab qilish bilan birga talaba shaxsini hurmat qilish va unga g'amxo'rlik hissini amalgà oshirish,adolat ustuvorligini ta'minlash, vazifalarni bajarishda aniq maqsadli bo'lish kabilarga e'tibor qaratish zarur. Murabbiy vazifalari shundan iboratki ularning faoliyati o'ziga xos bo'lib, har bir talaba bilan bevosita ishlaydi. Ularning har biriga kasbiy va differensional yondashadi. Murabbiy hislatlari talabalarning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham murabbiy eng avvalo, o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak degan fikr bejiz emasdir. Murabbiy o'z faoliyatida talabalarning tarbiyalanganligiga, axloqiy sifatlariga, ma'lumotiga, tashkilotchilik qobiliyatiga e'tibor berishlari, bo'lajak mutaxassisning ma'naviy kasbiynomasini tashkil etadi. Buning natijasida talabalarda qat'iylik, vatanparvarlik sifatlari shakllanadi. Ular ruhiy muhitga moslashadi. Murabbiyning asosiy vaqtı ya'ni 75% talabalar bilan hamkorlikda ishlashi uchun sarflanadi. O'zining kasbiy faoliyatining mohiyatidan kelib chiqib, talabalarda iroda, ong, nutq, xotira, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, kasbiy madaniyat, pedagogik ko'nikma, mehrbonlik, kasbiy vazifalarini aniq to'g'ri bajarish ba'zi bir muammolarga ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, o'z kasbini yaxshi bilish, yangi matbuotlar bilan tanishish, pedagogik-psixologik adapbiyotlar bilan ishlash kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Murabbiy talabalarga faqat tarbiya ob'ekti sifatidagina qarashi, yondashishi kerak emas, balki ob'ektdan bevosita hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali sub'ektga aylantirmog'i zarur. Murabbiy faoliyatida o'ziga xoslik, hurmatga sazovor bo'lishlik eng avvalo ularning muammoni hal qilishda ob'yekтивлиги, to'g'ri talab qilishi, talabalarga nisbatan g'amho'rligi, tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilishi, muloqotga tez kirishishi, pedagogik fikrlashga ega bo'lishi,harakatchanligi, tarbiyaviy ishlarni to'g'ri olib borishi bilan ajralib turadi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida pedagogika, psixologiya, sotsialogiya, madaniyatshunoslik, kompyuter texnologiyalari kabi fanlaridan soydalarish murabbiyning maxoratiga va ma'lumotiga bog'liqidir. Bugungi kunda ba'zi bir murabbiylarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda pedagogik va psixologik bilimlari yetarli emas. Bunday murabbiy umumiylar pedagogika, psixologiya fanlarini ko'proq bilishlari muhim ahamiyatga ega. Murabbiy pedagogik mahoratini shakllantirishning yo'llari o'ziga xos murakkab jarayondir. Pedagogik mahoratni shakllanishi avvalam bor har bir o'qituvchining o'ziga, uning xohish-istagi va qobiliyatiga bog'liqidir. Murabbiyning pedagogik mahorati birdaniga yuzaga keladigan jarayon bo'lmasdan balki maxsus tashkil etiladigan, boshqariladigan jarayon bo'lib birinchi navbatda huquqiy,

ahloqiy, estetik tarbiyaga asoslanadi. Shu o'rinda murabbiyning jismoniy tayyorgarligi ham tarbiya turlarining mazmunini boyitadi. Jismonan baquvvat o'qituvchi o'zining xatti-harakati bilan talabalarga namuna bo'ladi. Shu jihatdan ham murabbiyning faoliyatini uchta turga bo'lish mumkin. O'z ustida doimo ishlaydigan murabbiylar adabiyotlar o'qish bilan birga jiddiy, huquqiy, ahloqiy jihatdan tarbiyalangan bo'lishi shart. Lekin o'zini ustida ishlamaydigan, xizmat vazifasini sidqidildan bajarmaydigan talaba bilan ishi bo'Imagan, o'z faoliyatida pedagogik mahorat haqidagi tushunchalardan uzoqroq bo'lgan murabbiylar ham uchrab turadi. Murabbiyning tarbiyaviy ishlarida pedagogikaning usullaridan foydalinish, ya'ni talaba shaxsiyatiga tegmaslik, doiradan chiqmagan holda muomala va hurmat qilishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarning jamoa ishlarida bevosita qatnashishi muhimdir. Chunki, jamoat ishlari har qanday murabbiy va talabani fikrlarini rivojlantirish bilan birga muomalaga kirishni o'rgatadi. Murabbiy uchun eng qiyin bosqich bu talabalar jamoasini muhitga moslashuvi tashkil etish hisoblanadi. Bular murabbiyning pedagogik mahorati talabalarga ko'proq vaqt ajratish, birlgilikda mehnat qilishda psixologik yondashish talab etiladi. Bular murabbiyning kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Murabbiy talabalarga tarbiyaviy ta'sir etishda ularning barcha tomonlarini mukammal bilishlari muhim hisoblanadi. Murabbiy talabalarning huquqiy sifatlarini shakllantirishda bir maqsad yo'liga qaratilgan ongini faoliyatini pedagogik jihatdan tashkil etish, tarbiyaviy ishlarning barcha shakl va usullaridan bevosita foydalinish, mustaqil ishini tashkil etish, ularning faoliyatini nazorat qilish, shuningdek psixologik-pedagogik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Murabbiy tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda uning bilim darajasi, ish tajribasi, faoliyatining samarali ijobiy bo'lishi tajriba almashishiga malaka oshirishiga bog'liq. Tarbiyaviy tadbirlarning samarasi murabbiy va talabalarning bir-birini tushunishda, tashkilotchilik qobiliyatiga bog'liq.

Buning natijasida hamkorlik yuzaga keladi. Hech kim bir ishni o'z holicha qilmaydi. Chunki, ularda talabchanlik, tashabbuskorlik, o'zini ustida ishslash, pedagogik faoliyatga bo'lgan qiziqish, tarbiyaviy ishlarning natijasiga ishonishi, ziddiyatlarni yecha olish, jamoa oldida obro'sini ko'tarish kabi xususiyatlар kamol topadi. Talabalarda tashkilotchilik, adolatlilik, differensional yondashish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay olish, o'qish va shahsiy muammolarini hal qilish kabi munosabatlar rivojlanadi. Talabalar shaxsini shakllantirishda tarbiyaning usullaridan amaliy faoliyatda foydalana olish eng yuqori darajada bo'lishi

talab etiladi. Ba'zi bir murabbiy kasbining mohiyatini to'la tushunmaydi. Uning faoliyati ko'p qirrali, qiyin, sermazmunli bo'ganligi uchun doimo yordamga muxtoj hisoblanadi. Murabbiy talabalarni tarbiyalashda uning o'z kasbiga muhabbat uyg'otish, o'z kasbidan g'ururlanish, kasb madaniyatini shakllantirish ishlarini amalga oshiradi. Shuning uchun ham professor-o'qituvchilar, murabbiylar, huquqiy-ahloqiy, ommaviy-madaniy yo'nalishlarda tadbirlarni o'tkazishda san'at arboblari, yozuvchilar, san'atkorlar, taniqli teatr guruhiari, huquqshunoslarni taklif etadilar. Ommaviy tadbirlarda ishtirok etayotgan talabalar faqat tomashabin bo'libgina qolmay balki, bevosita uning ishtirokchisi va tashkilotchisiga aylanadi. Chunki, bunday tadbirga kelgan san'atkorlarga talabalar tashkiliy ishlarda bevosita yordam berishadi. Buning natijasida ularda salbiy psixologik, emotsiyonal holatlarni bartaraf etiladi.

Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashgan talabalarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish o'ziga xos rol o'ynaydi. Chunki, rag'batlantirish talabalarni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qoniqtiradi. Rag'batlantirishni amalga oshirishda avvalam bor, bu tadbirga tantana tusi berilishi kerak. Ba'zida talabani rag'batlantirishda differensional yondashilmaydi, to'grirog'i chetda qolib ketadi. Rag'batlantirishda talabani alohida chaqirib tabriklab qo'yiladi. Buning samarasini ko'ngildagidek bo'lmaydi. Uning ta'sir kuchi talab darajasida bo'lmaydi. Bunday jarayonlarda murabbiy talabalarning talab va istaklarini hisobga olish, boshqa sub'ektlar bilan doimiy hamkorlikni tashkil etishi, rejadagi barcha ishlarni o'z vaqtida samarali bajarish muhim hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda kuzatish metodidan foydalanish orqali talabalar ruhiyatini o'rganish mumkin. Kuzatishning maqsadi talabalar haqida dalillarni to'plash va psixologik-pedagogik jihatdan xatti-harakatini, ahloqidagi, xulqidagi o'zgarishlar dinamikasini o'rganish, ta'sir etish va natijalarni baholashdan iboratdir. Talabalarni kuzatish real muhitda amalga oshiriladi. Masalan, turar joylarida o'quv yurtining hududida, majlislarda, sport maydonlarida va ho'jalik ishlarida ularning faoliyatini kuzatish olib boriladi. Ular uning kuzatuv ob'ekti ekanligini bilmasligi kerak. Aks holda xatti-harakatini ongli ravishda o'zgartirishi mumkin. Kuzatish usullarining o'ziga xosligi shundan iboratki, ushbu jarayonda voqeа, xodisa aniq bo'ladi, xatti-harakatni esda saqlab qolish uchun esa xotira kuchli bo'lishi kerak. Xotirani kuchli qilish uchun xotira mashqidan foydalanish tavsiya etiladi. Xotira mashqi psixologik trening orqali yo'iga qo'yiladi. Kuzatish orqali shaxsning to'liq xatti-harakati o'rganiladi. Bunda, talaba o'zining xatti-harakatini iloji boricha tartibga

solib o'zgarishga harakat qiladi. Uzini ahloqini tartibga solish orqali har qanday tanbehlardan o'zini tutadi. Kuzatish usuli o'zining geografiyasini bilmaydi, vaqt, joy tanlamaydi. Kuzatishdan tashqari, suhbat usuli ham talaba faoliyatida muhim hisoblanadi. Chunki ushbu jarayonda talaba bilan bevosita suhbat o'tkaziladi. Uning shaxsiy sifatlari o'rganiladi. Yuzma-yuz suhbatlashishda uning oila a'zolari, qiziqishlari, shaxsiy muammolarini yaqindan o'rganish, ularining muammolarini hal etish yo'llarini ham izlab topish mumkin. Bunday suhbat psixologiyada, pedagogikada eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Suhbatga murabbiy juda ham chuqur tayyorlanish kerak. Chunki talaba bilan to'g'ridan-to'g'ri suhbat qilishda uning maqsadi aniq bo'lmasa, natijada samarasi kamroq bo'lib qoladi. Suhbat usuli nafaqat muammosi bor, balki barcha kursdag'i talabalar bilan o'tkaziladi. Suhbat o'tkazish joyini to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi. Chunki, suhbat uchun joyni to'g'ri tanlamaslik oqibatida uning ta'siri kamayadi. Keyingi suhbatlarning natijalari ham ko'ngildagidek bo'lmaydi. Suxbatda murabbiy tomonidan qo'yilgan aniq maqsad bo'lishi kerak. Ya'ni ijgimoiy turmush bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Suhbatning samarasi murabbiyning mahoratiga, tanlangan ta'sir etish usuliga bog'liqdir. Talabalar o'ttasida so'rovnomalari o'tkazish ham muhim hisoblanadi. So'rovnomaning savolları orasida tarbiyaga zid bo'lgan savollar ishlatalmaydi. Bunda eng ko'p qo'llaniladigan anketa turidir. Ushbu anketa turini o'ziga xosligi shundan iboratki, uni o'tkazish yo'li bilan talabalarning ko'pchiligini so'rash mumkin. Anketa o'tkazishda uni to'ldiruvchilarning javobi yashirin bo'lishi kerak. Shundagina anketaning barcha savollariga talabalar ko'ngildagi javobni yozishi mumkin. Bunda anketaning savolları aniq, tushunarli qilib yozilgan bo'lishi kerak. Olingan javoblar tahlil qilinadi va talabalarning amaliyotida qo'llaniladi. Talabalarning hujjatlarni o'rganish usullari ham mavjud. Bunda, professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda murabbiyning roli muhimdir. Talabalarning shaxsiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar murabbiylarda bo'lib, uning ijobiy, salbiy xatti-harakatlari aks ettirilgan bo'ladi. Murabbiylar talabalarni avtobiografiyasini, shaxsiy yig'ma jildini, tekshiruv natijalarini, shaxsiy hujjatlarini, darsda yozgan konseptlari, yakka tartibda suhbat o'tkazish daftarlarini tekshirish, o'rganish orqali ularni bilish mumkin. Chunki, talabalar faoliyatini tekshirishda, o'rganishda avvalo ularning qobiliyatini, imkoniyatlarini o'rganish orqali, nimaga moyilligini borligi aniqlanadi. Shaxsiy hujjatlarni o'rganish orqali dalillarni taqqoslash, taxlil qilish, talabalar harakterini bilish va ularga harakteristika berish, oila a'zolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi

mumkin. Talabalarning faoliyati ta'lim va tarbiya jarayonida bir xil nusxa bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham ushbu jarayonda ijodiy yondashish talab qilinadi. Tarbiyaviy ishlaridagi o'ziga xosligi ham inobatga olinadi.

## **3 –bob. TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARINI SHAKLLANTIRISHING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

### **3.1. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishga kompleks yondashish**

Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishda kompleks yondashish bir maqsad yo'lidagi umum harakatdir. Kompleks yondashish o'zining mazmuniga ko'ra tashkil etiladigan tadbirlar majmuasi bo'lib uning maqsadi bir butunlilikni tashkil etadi. Bizga ma'lumki, har qanday komplekslilik (butunlik) avvalom bor qismlardan, bo'laklardan iboratdir. Lekin har qanday yoki boshqacha aytganda har qanday qismlarning umumlashmasi butunlilikni tashkil etadi. Shuning uchun ham talabalarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishda kompleks yondashish avvalom bor tizimlik, maxsus tashkil etilganlik, boshqarishda talabchanlik muhim hisoblanadi. Talabalarda ta'lim-tarbiya birligi, bir maqsad yo'lida amal qiladigan oshiriladigan jarayon hisoblanadi.

Kompleks yondashishda uning maqsad, vazifa, mazmun, usul, shakl, tamoyillari birligiga erishish, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, talabaning ruhiyatiga ta'sir etuvchi omillarni izlash, topish muhim hisoblanadi. Ba'zibir murabbiy talabaga muammoning mohiyatini tushuntirishi uning pedagogik mahoratidan dalolat beradi. Talabalarni fuqarolik huquqlarni shakllantirishga kompleks yondashish mazmun jihatdan tarbiyaviy shakl va usullari tashkiliy tomonlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazmunning nechog'li samarali ta'sir etilganligi talabalar faoliyatida namoyon bo'ladi. Aks holda birini-biri takrorlash hollari yuzaga keladi. Kompleks yondashishda bir qancha vazifalar ham hal qilishga va tadbirlami yo'lga ko'yish maqsadga muvofik hisoblanadi. Komplekslilik nazriy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi.

Nazariy olingen bilimlar bevosita talabalarning intelektual salohiyatini rivojlantiradi. Kompleks yondashish talabalarni bo'sh vaqtini samarali tashkil eta olish shaxsni bir maqsadga yetkazish uchun hizmat qiladigan vosita hisoblanadi. Bunda shaxsni o'rab turgan muhitning roli kattadir. Talabalarning qiziqishlari, o'rganishlari, bilimlarini takomillashishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Kompleks yondashuvda talabalarning ongiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish va amaliy faoliyatida bilimlarini chuqurlashtirish muhim o'rinn tutadi. Bilimlar doimo talabalar tomonidan egallangan axborotlarga asoslanadi. Kompleks yondashish talabalarning bilimlarga qiziqishiga, ehtiyojiga bog'liqidir. Kompleks yondashishning

yana o'ziga xos tomoni shundaki talaba bilimlarga ega bo'lishi bilan birga, ularda ong, madaniyat, faoliyat rivojlanadi. Kompleks yondashishda qonun ijrosini yurakdan amalga oshirish, ularning mohiyatini talabalarga o'rgatish muhim hisoblanadi. Bunday talabalar o'zlarining xatti-harakatiga tanqidiy yondashishadi. Kompleks yondashish orqali talaba shaxsida fuqarolik burchi rivojlanadi. Kompleks yondashishda qonunni humrat qilishni ta'minlashda huquqiy, ahloqiy, siyosiy, tarbiya vazifalari amalga oshiriladi. Talabalar o'zlarining xatti-harakatini qonuniy yoki qonuniy emasligini o'zlarining bilimlari, dunyoqarashlaridan kelib chiqib tushuntirishga haraqat qiladi. Ularning fuqarolik jihatdan faolligi jamoat ishlarida faol ishtirok etishlarida namoyon bo'ladi. Talabalar jamoat ishlarida faol qatnashayotgani orqali o'zlarida ruhiy, ma'naviy qoniqish hosil qiladi. Lekin, ba'zida jamoat ishlarida qatnashishni majburiy usullari ham mavjud. Jamoat ishlarida majburiy ishtirok etish talabalar faolligini oshirmaydi. Aksincha majburiylikning asosida salbiylik bo'lishi ham mumkin.

Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish orqali ularning har biri psixologik bilimlarga ega bo'lib boradi. Buning natijasida amaliy faoliyatda talabalar qiyinchiliklarga uchraganda, muloqotga kirishganda, psixologiyasini qaysi usullaridan soydalinishni o'zlarini yaxshi bilishlari zarur. Ular nafaqat o'zlarining hizmat vazifalarini bajarishda uchraydigan to'siglarni bartaraf eta olishi bilan birga, o'z kasbdoshlari orasida o'z o'mini topa oladigan, o'z kasbini fidoyisi bo'lishi ham talab etiladi. Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishda kompleks yondashish mazmunini rivojlantirishda tashviqot ishlarining roli kattadir. Har bir tarbiyalanuvchining ongliligiga, faolligiga asosiy e'tiborni qaratadi. Talabalar chiqishlarida auditoriyaning talab va istaklarini inobatga olishlari kerak. Kompleks yondashish jarayonida talabalarda mustaqillik g'oyalari, madaniyat, g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash, qonunga humrat, qonun ustivorligini ta'minlash kabilar yuqori darajada rivojlanib boradi.

1. Talabalarning Prezident asarlarining mohiyatini chuqr bilishi va targ'ibot qila olishi, yuqori ma'naviy hummatga ega bo'lish, tashkilotchilik va qat'iylik, topshiriqni doimo bajarish, irodasining mustahkamligi, ishbilamoniqligi, ishni rejalashtira olishi va tashkillashtirishi, ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga kelishini oldini ola bilish qobiliyati, madaniy-ma'rifiy, ommaviy tadbirlarni tashkil eta olish xislatlariga ega bo'lishi ularning kasbiy sifatlari hisoblanadi.

2. Talaba ekanligidan faxrlanishlari, o'z kasbini chuqr o'rganishlari va seshloqat bilan xizmat qilishlari, yuqori dajadagi intizomliligi,

javobgarlikni xis qilishi, muloqotga kirisha olishi, halolligi, oddiyligi, hech narsaga har qanday sharoitda sotilmasligi, o'zini-o'zi tanqid qila olishi, kirishimliligi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi vatanga bo'lgan e'tiqodni namoyon etadi.

3. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarida bilimlarni egallashi, topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida bajarishlari, adolatparvar bo'lislari, ahloq-odob sifatlarini shakllanishi, jismoniy chiniqqanligi, dam olish, turmush tarzini to'g'ri tashkil eta olishlari bo'lajak mutaxassisning voyaga yetishning asosiy omillari hisoblanadi.

4. Talabalarda kuzatish qobiliyati, fikrleshadagi professionallik, pedagogik talab va texnikaning mavjudligi (ovozi, ko'nikmasi, mimikasi, jesti, o'qitishdagi texnik vositasi), shaxsiy namuna va kiyinishdagi tozalik, sarishtalik, diqqatini boshqara olishlik, xotiradagi o'ziga xoslik, mehnatsevarligi, o'zini tuta olishligi, kasbiy jihatdan mahoratini ustunligi bilan ajralib turishi lozim.

5. Talabalarda nutq madaniyati va nutqidagi o'ziga xoslik bilan ajralib turishda undagi haqqoniylig, nutqining mazmunliligi, dalillarga asoslanganligi, hissiyotga berilmasligi, nutqida maqollarni ishlata olishi, buyuk mutasakkir shaxslarni so'zlaridan iboralar keltira olishlik, nutkida oddiylik, auditoriyaga yetkaza bilishlik, ishonchlilik va mavzuning mohiyatini yorita olishlik hislati, jamoa oldida nutq so'zlashi, o'zini yo'qotib qo'ymaslik, nutq so'zlashda nafas olish, nafas chiqarishni tartibga sola bilishlik kabi sifatlarga ega bo'lishi lozim.

6. Murabbiy talaba shaxsini psixologik-pedagogik jihatdan bilishi, jamoa psixologiyasi, ularni orasida sog'lom muhitni tashkil etish yo'llari va shart-sharoitlari, shaxs psixologiyasini o'rganish va qo'llash usullari, fuqarolik madaniyatni shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish, tarbiyalash, o'qitish usullari, psixologik-pedagogik asosları, sotsiologik tadqiqotlar o'tkaza olish kabilarni bilishi zarur. Shuningdek, tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish, talabalar jamoasini shakllantirish, birdamligini uyuştirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish, hal etishni tashkil eta olish, fuqarolik madaniyatning mazmuni, usullari, shakllarini tanlash va uni amalyotda qo'llash, shaxsning ruhiy xolatini o'rganish, pedagogik nazorat qilish va talabalarga yordam ko'rsata bilish, pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va pedagogik tadqiqot metodikasidan foydalana olish, talabalar bilan muloqotni to'g'ri yo'lga qo'ya olish, rahbarlik usullaridan mohirona foydalana olish, muloqot olib berishda kasb odobnomasi va kasb madaniyatiga rioya qila olish, qo'yilgan toshiriqni bajarishga bo'lgan

ko'nikma va malakalarni zamon talabi darajasida bo'la olishlik, talabalarni eshita bilish, uning ahvolini tushuna bilish, tarbiyaviy ishlar olib borish, guruxdagi ba'zi bir vaqlarda yuzaga keladigan ziddiyatlarni hal eta olish, shaxsning shaxsiy sifatlarini ham psixologik bilimlar asosida o'rganib borish ko'nikmalarini egalagan bo'lishi zarur.

7. Murabbiy fuqarolik huquqini targ'ibot va tarbiyachisi sifatida bilimlarga ega bo'lish, ma'ruzalar tayyorlashi, nutq texnikasi, maxsus adabiyotlar bilan ishlashi, auditorianing psixologik holatini baholay olishi va unda o'zini tuta bilish, o'zini fikrini to'g'ri yetkaza olish, talabalar oldida mustakil o'zini chiqishini tayyorlay olish, ular bilan aloqa o'rnata bilish, materialni ishonarli qilib yetkaza olish, texnik vositalardan foydalana olish, ko'rgazmali vositalar bilan mashg'ulotlarni jihozlash gurux jamoasini o'z orqasidan ergashtirish kabi hususiyatlarga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishga kompleks yondashish tarbiya tizimining uzviy bog'liqligi muhim o'rinni tutadi. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishga kompleks tarbiya tizimining bir-biriga bog'liqligi, ularni shaxs manfaatiga xizmat qilishni ta'minlashning muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaviy ishlar asosida amalga oshirish, ayniqsa ularga kompleks yondashish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik huquqlarini shakllantirishga kompleks yondashuv deganda muayyan sharoitlarda shakllangan davlat, jamoat tapgiklolarining qonun asosida o'z faoliyatini olib borish nazarda tutiladi. Bular iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jarayonlar ta'siri ostida vujudga keladi. Shaxslarning o'zlari ham fuqarolik munosabatlarning mahsuli bo'lib qolmay, ayni paytda ularning, ya'ni qonunlarni yaratuvchisi va ijodkor ham hisoblanadilar. Shaxs bir jihatdan fuqarolik madaniyatning obyekti bo'lsa, ikkinchi tomonidan esa, shaxs uning sub'ekti bo'lib xizmat kiladi va bu faoliyatning barchasini boshqaradi va ularga rahbarlik qiladi.

Ilmiy pedagogika, to'g'risidagi adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, shaxsni shakllantirishga ta'sir etadigan sub'ektlar tizimi bir qancha bo'lib, ular muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda muktabga borishi, ya'ni birinchi sinfdan boshlaboq ularda ong rivojlanish kuzatiladi. Oila va bolalar bog'chasi, keyin umumiy o'rta ta'llim maktablar ta'llim-tarbiya sub'ekti hisoblanadi. Shaxsning kamolga yetishi jarayonida bolaga ota-onasi va tarbiyachilaridan tashqari uni o'rab turgan ijtimoiy muhit katta ta'sir etadi. Yoshlikdan shaxs ongingin shakllana borishida milliy an'analarga hurnat-ehtirom ruhini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning bolalikda, o'smirlik yoshida va yoshlik yillaridagi shakllanishning assosiy bosqichlari sifatida oila, jamoatchilik tarbiyasi, maxsus muassasalar ya'ni, bolalar bog'chalari, mакtablar, shaxs yoshiga qarab tuziladigan rasmiy va normasmiy guruhlar va uyushmalar bolaning boshlang'ich, inson va jamiyatni bilishga, hurmat qilishga o'zini ko'niktirib borish jarayoni hisoblanadi. Yangi Qonunlar, farmonlar, qarorlar, shaxs fuqarolik ongini, va bilimlarini boyitib boradi. Bu esa shaxsni fuqarolik madaniyatini shakllantirish imkoniyatini yanada kengaytirib boradi.

Fuqarolik madaniyatni yuksaltirishda jamoat birlashmalari, jaing'armalar, ittifoqlar, uyushmalar, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy faolligi muhim hisoblanadi. Kompleks yondashishda maktabgacha va maktabda o'qish davrida bola o'zining vaqtini ota-onalar bilan uy sharoitida o'tkazishadi. Shuni unutmaslik lozimki, bolaning (shaxsni) qalbi bu toza qog'ozning varag'i bo'lib, unga hamma narsani yozish mumkin. Lekin nima yozish uning dunyoqarashiga, tarbiyasiga bog'liq. Ba'zi bir ota-onalarning noto'g'ri xulq-atvori tufayli ba'zi bir shaxslarni salbiy odatlarini o'zlashtirish yo'liga kirish holatlariga duch kelayotganligi hammani tashvishga soladi.

Oila go'dakni shaxs sifatida shakllanish jarayonida, unda ijobiy va salbiy fazilatlar yuzaga keladi. Lekin ba'zi bir o'smirlarning ahloqqa zid xatti-harakatlarining eng muhim sabablari oiladagi ko'ngilsizliklar, ota-onalarning mas'uliyatsizliklari, ota-onalarda bolalar tarbiyasi uchun yetarlicha vaqtini bo'lmasligidan kelib chiqadi. Ba'zi oilalarda ota-onalar tarbiya berish o'rniiga o'zlarini tuta olmaslik va toqatsizliklarini namoyon etadilar. Bunday xatti-harakatlarni o'smir yigit va qizlar haqorat deb tushunib, aksariyat holatlarda ota-onalari aytganini teskarisini qilib qo'pol muomalada bo'ladilar va bo'ysunmaydilar.

Shaxsning besh yoshgacha bo'lgan tarbiyasi uning butun kelgusi hayotini hal qiladigan va belgilab beradigan ongli jarayondir. Bu yoshda bola favqulodda o'zgaruvchan, asabiylashishga moyil bo'lib, unda oddiy bilimlar, muomala me'yorini o'rganish jarayoni juda sekin kechadi. Shaxs faoliyatining (bola) assosiy turi o'yindir. Bolalar o'z bilimlarini, o'yin orqali anglab oladi. Bola faoliyatida o'yindan tashqari mehnat faoliyatining ilk malakalarini o'rganadi. Muomala, huquqiy, ahloqiy me'yorlarini o'zlashtirishadi. Bilimlar shaxslar tomonidan mashq qilish orqali rivojlanadi. Oilalardagi janjallarning sabablari turflicha bo'lib, ularni bir tizimga solish qiyin bo'lgani bilan guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, o'smirlarning o'zgalar ta'siri ostida qolishi. Uzgalar ta'siriga tez

berilishi, tajavuzkorlik, bag'ritoshlik, salbiylik, o'zini tutabilmaslik, ujarlik, tez achchiqlanish, injiqlik, yalqovlik, qo'rqoqlik, et'tiborsizlik, oilada o'g'il yoki qiz bolani erkatalib yuborish va hokazolar. Bundan tashqari shaxsga salbiy ta'sir etadigan omillar oila a'zolarining spirtli ichimlik ichishga ruju qo'yanlarini tashkil etadi. Ikkinchisi asosiy sabab ota- onalarning tarbiya usullarini tanlashlarida bir-biri bilan umumiy fikrini yo'qligini tashkil etadi.

Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishda keng jamoatchilik bilan o'zaro muloqotda bo'lish, yangi qabul qilingan qonunlarni bilish, davlat, jamoat tashkilotlari faoliyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi muhim o'rinni tutadi. Bunda maorif, tarbiya va shaxsning shakllanishiga yo'naltirilgan muassasalar va idoralar muhim o'rinni tutadi. Chunki, ular tomonidan berilgan nazariy bilimlarni talabalar amaliy faoliyatida qo'llaydilar. Albatta, nazariy bilimlarni egalashda shaxslarning e'tiqodi qadr-qimmatli hisoblanadi. Chunki, fuqarolik madaniyatni shakllantirishning har bir bosqichiga fakat e'tiqod yo'li bilan erishish mumkin. Bundan tashqari shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirishga ta'sir etishning eng qulay usuli bu ular fikrini to'g'ri mulohaza qilishdir. Buning natijasida talabaning fuqarolik ongida muomala va o'zaro harakat to'g'risida tasavvur tug'iladi. Uning fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ijobjiy natijalar beradi. Shaxs bilan aloqa o'rnatishda suhbat ham umumiy mavzuni yuzaga keltiradi. Tarbiya jarayonida vujudga keladigan rasmiy va norasmy shaxslararo munosabatlarning talaba bo'lgan katta ahamiyatga ega. Oilada otaning bolaga tarbiyaviy ta'siri kuchli hisoblanadi.

Ahloqiy jihatdan shaxsni shakllanishiga salbiy ta'sir etadigan oilada ayrim omillar mavjud. Bular, spirtli ichimlikka ota yoki ona, ko'p hollarda farzandini o'zini ruju qo'yishi, jamiyatga xilof qarashlarning saqlanib qolganligi, uning fuqarolik ongiga ta'sir qiladi. Shaxsni tenqurlardan begonalashuvi, qalban yakkalik, e'tibor va mehr, o'zini qadr-qimmatini boshqalar oldida yo'qligini sezish, his qilish, bularning barchasi shaxsni o'zligini tanitadigan va uni o'zini boshqalardan qalban yakkalik, e'tibor va mehr, o'zini qadr-qimmatini boshqalar oldida yo'qligini sezish, his qilish, bularning barchasi shaxsni o'zligini tanitadigan va uni o'zini boshqalardan yuqori hisoblaydigan muhitni yaratadi. Shu tariqa shaxsning jamiyatga qarshi qaratilgan xulq-atvor kelib chiqadi. Huquqbazarliklarning kelib chiqadigan omillardan biri oiladagi ijtimoiy tarbiyaviy yetishmovchilikdir.

Ko'pincha huquqbazarlik holatlari to'liq bo'lmagan oilalarda uchrab turadi. Bundan tashqari oilaviy maishiy dam olishlar, atrof- muhit

o'z navbatida bolaga faqat ijobjiy emas, balki ba'zi bir sharoitlarda unga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Umumiy o'rta ta'lif maktablari shaxsning o'z xususiyatiga, mohiyatiga ko'ra o'quv va tarbiya jarayonida olib boriladi. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida shaxs ongiga ta'sir etishning individual usullaridan foydalilaniladi. O'quvchilarda bilimlarga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Ularda oila, fuqarolik, jinoyat huquqi haqidagi bilimlarni, mahalla faollari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Ta'lif tizimiga qarashli maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan o'quv ishlari jarayonida shaxs xulq-atvori tajribalar, mehnat va jamoat ishlarida faol qatnashishi orqali o'zlashtirib boriladi. Har bir shaxs, xususan o'smir o'z-xulq atvorini ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar, qoidalarning nisbati bilan taqqoslaydi. Bu xulq-atvor shaxsning o'zini baholash uchun zarurdir. Boshqacha aytganda, shaxs o'z xulq-atvorini, boshqalarning odob-ahloqi bilan taqqoslash, qiyoslash orqali tartibga keltiradi. Shu bois shaxsda hayotga o'zlarini to'g'ri tayyorlay olishi, turli vaziyatlarda xatti-harakat o'rtasidagi chegaralash, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishning yo'li va vositalarini tanlash imkonini beradi. Shunday qilib, umumo'rta ta'lif maktablarida o'quvchilar tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar majmuuni egallaydilar. O'zlar uchun murakkab bo'lmanan fuqarolik malakaclarini o'zlashtirib borishadi. O'qishni tugatgungacha bo'lgan davrda o'quvchilar fe'l-atvor, iroda, hayotda asqotadigan huquqiy tajriba shakllanadi.

Ularning bunday fuqarolik bilimlari majmuasi shakllangan fazilatlari oila, maktab, jamoat uyushmalarining faoliyatida ham qo'l keladi. Talaba o'z xatti-harakatlari natijasida xavfli oqibatlar kelib chiqishi, o'z qilmishlarini nimalarga olib kelishi mumkinligini anglab yeta boshlaydi. Ayni paytda u o'z xatti-harakatlari oqibatida uning ahamiyatini tushunib yetadi. Fuqarolik madaniyatni shakllantirish darajasi barcha shaxslarda bir xil bo'lmaydi. Buning sabablari har xil, ya'ni fizologik, psixologik, biologik xususiyatlari shaxsning kamol topishi darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Ayni paytda qonun shaxsning fuqarolik madaniyatini individual xususiyatlarini ham inobatga olishga imkon beradi. Shaxs fuqarolik huquqlarini shakllantirishda kollejlarning ham muayyan o'rni mavjud. Kollej o'quvchilarining ba'zi birlari o'qishni o'zlashtirishni juda ham xohlayvermaydigan o'smirlar bo'lib, ularni tarbiyalash og'ir bo'ladi. Lekin aksariyat o'quvchilar oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish uchun zamin yaratadi. Oliy o'quv yurtlariga kirish shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirishning asosiy bo'g'inidir. Oliy o'quv yurtiga kirish bilan aksariyat talabalar turar joylarida yashash imkoniyatini

qo'lga kiritadi va bu esa ularda yashash qoidalarini bilish, o'z huquqlari va burchlariga rioya qilishga majbur etadi. Talabalik yillari yoshlarning muayyan ijtimoiy yetuklikka erishgan, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan, davlat idoralarida ishlay oladigan, ijtimoiy ishlab chiqarishda o'ziga xos mavqelar va vazifalarni bajarishga tayyorlanayotgan guruhiga mansubdir. Talabalik yillari shaxs kelajak faoliyatini hal qiluvchi bosqichi ekanligi barchamizga ma'lum. Talabalik yillari shaxs aqliy va jismoniy qobiliyatlarining kamol topishi uchun imkon beradi. Biroq, ayni vaqtida oliv o'quv yurtini tamomlash orqali rasmiy oliv ma'lumotga ega bo'lgach, shaxs o'zini ma'naviy, huquqiy jihatdan to'la haq-huquqqa ega ekanligini anglaydi. Turmush taqozosi bilan yuqorida zikr etilgan ma'lumotlar yoshlarni shaxs sifatida mehnat, oila va boshqa qonunlarni o'zlarining bo'sh vaqtlarida va ish faoliyatlarida puxta bilim olishlariga muhtojligidan dalolat beradi. Talabardarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli katta. Ular aholini faqatgina axborot, ma'lumotlar bilan ta'minlab qolmay o'zining targ'ibot va tashviqotchilik vazifalariga asosan ommaviy axborot vositalari shaxsni madaniyatini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizning deyarli barcha matbuotlarida, radio va televideniyalarida, oila, maktab, ota-onalar, bolalar ichkililikbozligi, giyohvandligi iqtisodiy jinoyatchilik, poraxo'rlik, o'g'irliklarga qarshi kurashish muammolari keng yoritilmogda. Mahalla davlat bilan fuqarolarni bog'lovchi muhim bo'g'indir.

Uning faoliyati natijasida davlat bilan fuqarolar o'rtasida alohida munosabatlar vujudga keladi, mahallaning muhim vazifasi har bir shaxsning ongini ma'naviy komolotini oshirish, millatchilik, mahalliychilik kabi salbiy jihatlarni yo'qotish uchun ish olib borish va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarga, Vatanga, davlatga va boshqa fuqarolarning manfaatlariga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdir. O'zbekistonga xos bo'lgan mahallalar aholini ish bilan ta'minlash, huquq tartibotini mustahkamlash masalalarida fuqarolarning e'tiborini tortib kelmoqda. Shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirishda mahalla qo'mitalari a'zolari, otalikqa olganlar va jamoat tarbiyachilari, istiqomat joylaridagi to'garak va seksiyalarning rahbarlari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha nozirlar, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash, yoshlar va sport tashkilotlari va muassasalari hodimlari, ota-onalar faollari katta mavqyega ega. Talaba-yoshlar bilan tarbiya jarayonida urf-odat, oilaviy an'analar kabi omillar ijobiy ta'sir qiladi. Mahalla faollarining harakatlari orqali urf-odatlar, oilaviy an'analarini u yoki bu darajada tartibga soladi.

Mahalla fuqarolari orqali fuqarolik bilimlarni targ'ib qilish, o'smirlar o'rtaida sodir etiladigan huquqbazarliklarning oldini olish va huquqiy tarbiya, huquqiy targ'ibot mavzusidagi tadbirlarni o'tkazish, milliy urf-odat, an'analarni mavqeini oshirib borilishiga shart-sharoit yaratish kabilarni amalaga oshirish muhim hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirishda san'at ham o'ziga xos tarbiya sub'ektlari hisoblanadi.

Bunda talabalarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi. Faoliyklari rivojlantiriladi. Shaxs fuqarolik huquqlarini shakllantirishda madaniyat saroylari, sanatoriy, profilaktoriy, dam olish uylari va kutubxonalar o'ziga xos tarbiya sub'ektlari hisoblanadi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'zining faoliyatining mohiyatiga ko'ra huquq mavzuidagi tematik kechalardan boshlab ko'rgazmali tashviqotning barcha tarbiyaviy va tashviqiy imkoniyatlarni amalga oshiradi. Fuqarolik targ'iboti, huquqiy tarbiya tadbirlarida bevosita ishtirok etmaganlar va ular bilan qiziqmagan shaxslar uchun bu sohada madaniy-ma'rifiy muassasalarining imkoniyatlarini, rolini tarbiyaviy ta'sir kuchini tushunib yetishlari ancha mushkul. Shaxs fuqarolik huquqlarini madaniyatini shakllantirishda madaniy-ma'rifiy muassasalar, turli tashkilotlar, uyushmalarning birgalikdagi faoliyatining oqibat natijasi tarbiya jarayonini tashkil etishdan iboratdir. Oliy ta'lim muassasalarining o'z mazmuniga ko'ra huquqiy-ma'rifiy, huquqiy amaliyotlariga yordam berish, huquqiy xizmat ko'rsatish kabi asosiy yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarining huquqni muxofaza qiluvchi organlari bilan o'zaro hamkorlik faoliyati, maksadlari, vazifalarining birligi, ish mazmuni bir - biriga bog'liqligi va ularni qanchalik to'la amalga oshirilishiga ham uzviy bog'liqidir. Oliy ta'lim muassasalarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikdagi faoliyati fuqarolik madaniyatni shakllantirishdagi samaradorligi talabalarining manfaatlari va talablarini inobatga olgan holda amalga oshib boradi. Shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarining ahamiyati bekiyosdir. Oliy ta'lim muassasalarida targ'ibot, tashvikot ishlarini olib borish, ularga differentsional yondashish talab etiladi. Talabalarda har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'zining huquqlarini va burchlarini yaxshi bilish, bilimlarni, kasbiy vazifalarini bajarish natijasida qonunlarning serkirraligini tushunib yetish, jamoada, uni boshqarishda faol sub'ektlarga aylanib boradi. Shaxsning boshqarishda, yoshlariing qonun ijodkorligida faol ishtirok etishni ta'minlaydi. Bilimlar shaxs faoliyatida tizimlilik, ketma-ketlik kabilarni vujudga keltirib, kompleks shaklda olib borilishini ta'minlaydi. Buning

natijasida, birinchidan talabalar faoliyati mazmunini yangilaydi. Ikkinchidan, ularning bilimlarini to'ldiradi, boyitadi.

Tarbiyaviy va targ'ibot tadbirdi bilan bevosita bog'laydi. Masalan: ekologik, fuqarolik, jinoiy, oila, mehnat yo'nalishiga oid tadbirdi ularning mazmunini yoritish bilan birga, talabalarda o'rmonni asrash, ko'paytirish, yovuzlikka qarshi kurash, tabiatni, ekologiyani ifloslanishdan asrash, tabiiy resurslarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish kabi bilimlarini shakllantiradi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fuqarolik ongini, madaniyatini, shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud, ya'ni texnik vositalar, mul'timediya, ommaviy ahborot vositalari va hokazolar. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasapari faoliyatining mazmunida tarixiy va madaniy yodgorliklarni saklash, targib qilish masalalari, ularning huquqiy makomi, ahamiyati, bevosita bilimlar bilan bog'liqidir.

Shu jihatdan ham oily ta'lim muassasalarining an'anaviy tarbiya, targ'ibot ya'ni, ekskursiya, arxeologlar, etnograflar bilan uchrashuvlar, arxitektorlar bilan suhbatlar, rassomlar asarlarini ko'rgazmasini tashkil etish, madaniy yodgorliklarni saqlash, tiklash ishlari bilan ham shug'ullanishlari, tarixiy madaniy yodgorliklarni targ'ibot qilish kabi tadbirdi talabalarda milliy, ahloqiy tartib-qoidalarga rioya qilish madaniyatini rivojlantiradi. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi faqatgina fuqarolik jamiyati haqida talabalarga ma'lumot berish bilan chegaralib qolmay, balki oilada, mакtabda, kollejda, institatlarda, universitetlarda olgan bilimlarini rivojlantirishdan iboratdir. Ya'ni, huquqiy, bilimlarni ta'lim tizimida amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida axborot resurs markazi hodimlari tomonidan huquqiy mavzudagi adabiyotlar ko'rgazmalarini tashkil etish, oila, mehnat, fuqarolik qonunlariga talabalarda qiziqish uyg'otish, huquqiy, fuqarolik jamiyati haqidagi adabiyotlarni targ'ibot qilish, talab va istaklarini hisobga olish kabilarni amalga oshirish ularda mehnat, oila, inson huquqlariga oid bilimlarni shakllantiradi. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini va ichki ishlar organ hodimlari bilan birgalikda huquqiy, fuqarolik jamiyati mavzudagi tadbirdi o'tkazishlari talabalarning gurmushda, dam olish hakidagi ma'lumotlarini rivojlantiradi. Albatta muamollarni hal qilishda zarur maxsus adabiyotlarga murojaat qilish, ularning mohiyatini to'g'ri tushunish va unda huquqiy jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish xususiyatlari shakllanadi. Oliy ta'lim muassasalarining barcha professor-o'qituvchilar doimiy ravishda hamkorlikni rasmiy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yish talabalarning o'qish, yashash, dam olish joylaridagi tadbirdi samarasini oshiradi.

Ushbu ishlar jarayonida oliy ta'lif muassasalarini va ichki ishlar organ hodimlarining hamkorligi bilan chegaralanib qolmay, balki barcha talabalarning ishtirokini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Shaxs fuqarolik huquqini shakllantirishning asosiy mazmunini O'zbekiston Respublikasidagi qonunlar tashkil etadi. Amaliyotda talabalarning talab va istaklarini e'tiborga olish ular faoliyatda huquqiy targ'ibot, tashviqot, huquqiy g'oyalar mohiyatiga alohida e'tibor qaratish asosida fuqarolik jamiyati muammolari hal qilinadi. Shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirish mazmunida konun buzilishini oldini olish, uning shakl va usullari amalga oshiriladi. Bunda professor-o'qituvchilar talabalarga qonunlar mohiyatini ochib berish bilan birga uning maqsad, vazifalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tushuntirish, uni amalga oshirish ishlarini olib boradilar. Oliy ta'lif muassasalarida fuqarolik huquqlarini shakllantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Talabalarning eng avvalo huquq va burchlarini keng doirada bilishlari, fuqarolik sohasidagi bilimlarni amaliy faoliyatlarida qo'llashlari aosiyoq rol o'yndaydi. Shu talabalarning eng avvalo huquq va burchlarini keng doirada bilishlari, fuqarolik sohasidagi bilimlarni amaliy faoliyatlarida qo'llashlari aosiyoq rol o'yndaydi. Shu jihatdan ham fuqarolik madaniyatini targ'ibot-tashviqot qiluvchi sub'ektlar, o'zlarining faoliyatida avvalombor, ularning mazmunini, ya'ni ishontirish, amaliyot bilan bog'lash usullari bilan olib borishda, hamma uchun manzur bo'ladigan va isbot talab qilmaydigan tamoyillarga asoslanishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda muhim o'rinni tutadi. Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish mazmunida barcha huquqiy, ma'naviy qadriyatlar, barcha bilimlar, tafakkurlar xizmat qiladi. Ushbu jarayonda talabalar nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga hayotiy tajriba, maxsus kasbiy bilimlarni egallash orqali, ilmiy bilish usullari mustaqil ta'lif orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lif tizimida talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda faol qatnashish, madaniy-maishiy turmush tarzida uchraydigan oila, ma'muriy, huquqiy bilimlarga ega bo'lish xususiyatlari rivojlanadi. Talabalar fuqarolik huquqini shakllantirishda mustaqil ta'lif egallashi muhim o'rinni tutadi. Bunda lektoriylar, to'garaklar xalq universitetlari va ularning faoliyatları, yangi qabul qilingan qonunlarning maqsad va vazifalarini bilishlari muhim ahamiyatga ega. Bu oliy ta'lif muassasalarida targ'ibot-tashviqot qilinadigan ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyatida o'zining samarasini beradi.

Talabalarda fuqarolik huquqini shakllantirishda ko'rgazmali vositalardan foydalananish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ko'rgazmali vosita shaxsning ko'rish, idrok etishi orqali axborotlarni egallaydi. Ya'ni

televideniya, sahna asarlarini kuzatish, tasviriy oyna orqali bilimlarni targ'ib qilish maqsadida uyuşhtirilgan ko'rgazmalar orkali o'zlashtirishadi. Talaba atrofidagi olamni huquqiy bilish uchun muayyan tayyorgarlik, ayniqsa ushbu soha bilim va malakaga ega bo'lishi va ularning amaliyotga qo'llanishini izchillik bilan boyitib borishi doimo tajribani yanada mustahkamlaydi. Bularning barchasi talabaning o'zini ustida mustaqil ishlashini taqazo etadi.

Fuqarolik madaniyatni shakllantirishda talabalarning ijtimoiy jarayonlarini boshqarish eng muhim vositalaridan hisoblanadi. Fuqarolik madaniyati o'ziga xos yo'lchi yulduzdek talabalarni hayot yo'nalishlarini to'g'ri egallashga, ularga ta'sir etishga, ko'zlangan maqsadlarga yetishishga imkon tug'diradi. Talaba fuqarolik madaniyatini shakllantirishda muomala ham o'ziga xos o'rinnegallaydi. Bu o'rinda shaxsning muomalasi uning ijodining rivojlanishida o'ziga xos vosita hisoblanadi.

Muomalaning eng faol olib boriladigan negizi jamoada va jamoatchilik bilan bo'lgan munosabatda ifodalanadi. Muomala sezilarli darajada odamlarga yordam beradi. Kishilarda huquq sohasidagi axborotlar yangiliklar, voqealar, xaqidagi ma'lumotlarni rivojlaniradi. Eng muhimi shaxsni o'zini ustida mustaqil ishlashga majbur etadi.

Shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirish uslublari - bu sub'ekt va ob'ektning birgalikda, bir maqsad yo'lidagi olib boradigan faoliyatiga xizmat qilish tushuniladi.

Uslub yunoncha «sheShoyoz (metod) aynan nimagadur yo'l» ma'nosini beradi. Umumiylar ma'noda uslub maqsadga erishuv usulini muayyan tarzda faoliyatni tartibga solish orqali ifodalanadi. Uslubdan to'g'ri foydalanish orqali shaxs jarayonini bilish mumkin. Bu uslublar orqali mazkur jarayonda shaxsning bilimi va hayotidagi faoliyati rivojlanadi. Uslublardan shaxsni o'zini ustida ishlashga, o'qishga tarbiyalashga yordam beradi. Oq'zaki ko'rgazmali, texnik vositalar orqali talabalarda uslublarni rivojlanirish. Mustakil harakat qilish jarayonlarini mustahkamlaydi. Bunda og'zaki, tushuntirish, o'zaro muloqot, muhokama, maslahatlar berish, tarbiyaga oid adabiyotlarni ko'rgazmaga qo'yish, annotatsiya asosida targ'ibot qilish, badiiy fil'mlarni namoyish etish, muomalaning eng qulay usulini tanlash kabi uslublardan foydalanish kabilar talabalar bilimlarini mustahkamlashda o'z samarasini ko'rsatadi. Bunda eng avvalo muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatning o'ziga xosligini, birga ishlashga to'g'ri keladigan talabalar tabiatini inobatga olmoq zarur.

### **3.2. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish tadbirlari**

Oliy ta'lim muassasalarida fuqarolik huquqlarini shakllantirishga oid o'tkaziladigan kechalar, og'zaki jurnallar, huquqshunos olimlar, amaliyotchilar bilan uchrashuvlar, disput, viktorinalar, tanlovlар, munozaralar, anjumanlar, maslahatlar, ko'rgazmalar, shiorlar bilan bezatilgan xonalar, burchaklar, to'garaklar, studiyalar, kurslar, sektsiyalar, talaba faoliyatining samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

Bunday tadbirlar talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, darsda olgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va mustahkamlash, qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, alohida ahamiyatga egadir. Chunki, talaba-yoshlarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishda ta'lim-jarayonida qanchalik darajada samarali tashkil etilishidan qat'iy nazar, barcha vazifalarni to'la hal qila olmaydi. Shu jihatdan talabalar bilan tashkil etiladigan va maqsadga qaratilgan tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning turli shakkllari va usullari muhim o'rinn tutadi. Bunday tadbirlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha fakul'tet dekani o'rinnbosari tomonidan murabbiylar, «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati, Kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo'mitasi, boshqa turli uyushmalar va to'garaklar faoliyatini muvosiflashtirgan holda amalga oshiriladi. O'tkir zehnlilar bahslashuvi, ijodiy uchrashuvlar, bahs-munozaralar, fan to'garaklari, ilmiy-amaliy konferentsiyalar, olimpiadalar, badiiy-sport tadbirlari, ko'rik-tanlovlar, ekskursiyalar, ommaviy bayramlar kabi shakllarda tashkil etiladi. Tadbirlarning o'ziga xos xususiyati ixtiyorilik ravishda amalga oshiriladi va unda o'z xohishlari bo'yicha ishtirok etadilar mashgulotlarning turlarini erkin tanlaydilar. Ushbu jarayonda murabbiylaming asosiy vazifalaridan biri talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda maksimal darajada ularni ushbu faoliyatga jalb qilishdan iborat bo'lishi kerak. Tadbirlar ommaviy, guruhda va yakka tartibda tashkil etiladi.

- Ommaviy tarzda o'tkaziladigan tadbirlar «Vatan himoyachilarini kuni», «Xotin-qizlar bayrami», «Navro'z», «Mustaqillik bayrami», «Ustozlar va murabbiylar kuni», «Konstitutsiya kuni», buyuk mutafakkirlarning tavallud topgan kunlari munosabati bilan o'tkaziladi.

- Guruhlar bilan o'tkaziladigan tadbirlar «o'tkir zehnlilar bellashuvi», sport musobaqalari, fan olimpiadalari, fan to'garaklari, turli uyushmalar, ko'rik- tanlovlar, ko'rgazmalar, ekskursiyalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

- Yakka tartibda tashkil etiladigan faoliyat turlariga musgaqil o'qishni tashkil etish, referat va konspekular yuz zish, konferentsiyaga ilmiy ma'ruza

tayyorlash, ma'naviy merosni o'rganish bo'yicha ma'ruzalar yozish kabilar kiradi.

Tadbirlar mazmun-mohiyatiga ko'ra talabalarda, birinchidan, vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantiradi.

Ikkinchidan, ushbu tadbirlar talaba ularning darsdan olgan bilimlarini yanada boyitish va mustahkamlashga yordam beradi;

Uchinchidan, talabalarda ushbu tadbirga tayyorgarlik ko'rish jarayonida faoliik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, o'zlariga berilgan topshiriqni bajarishda mas'uliyat va javobgarlik mas'uliyati rivojlanadi.

Talabalarning fuqarolik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlar dolzarb mavzularda, xususan, «Fuqarolik burchi va madaniyat», «Sening huquq va burchlaring», «Inson va jamiyat», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari», «Voyaga yetmaganlar huquqbizarligi va jinoyatchiligi hamda uning oqibatlari», «Giyohvandlik - insonning kelajagini o'z ixtiyori bilan yo'q qilishidir», «Qonuniy harakat, qonunga zid harakat. Harakatsizlik nima?», «Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari» mavzularida suhbatlar, uchrashuvlar, ma'ruzalar, babs-munozaralar tarzida tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, ma'naviy-huquqiy me'rosimizni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar, diniy ekstremizm va terrorizm muammolari, odam savdosi, erta turmushga chiqishning salbiy oqibatlariga bag'ishlangan mavzuli kechalar tarzida tashkil etilishi talabalar fuqarolik madaniyatini shakllantirishda samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Ushbu tadbirlar talabalarning bilim saviyasini oshiradi, fuqarolikka oid tushunchalarni yanada mustahkamlaydi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi, huquqiy faolligini oshiradi. Talabalarni mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga, ularda nutq madaniyatini o'stirishga, fikrlarini umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatadi.

O'tkaziladigan tadbirlarning asosiy maqsadi har bir talabada ongli ravishda fuqarolik nuqtai-nazarini shakllantirish, milliy va umuminsoniy ahloq, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat haqida tushunchaga ega bo'lishnigina emas, uni qurishda faol qatnashishga tayyorlashdan iboratdir.

Fuqarolik huquqlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda tashkilotchilar, o'qituvchilar, murabbiylardan nazariy tayyorgarlik, yoki malaka talab qiladi. Bunda

talabalarda tadbirdan manfaatdorlikni vujudga keltira bilish, ularning hatti-harakatini boshqarish, muvofiqlashtirish va maqsadga yo'naltira bilish katta ahamiyatga egadir. Tadbirlar yo'nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilashda hayotiylik, ommaviylik, ixtiyoriylik, ilmiylik tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'tkaziladigan har tadbirning muayyan xususiyatga ega bo'lishi, aniqligi, aniq ifodalangan maqsadga yo'naltirilishi orqali hayotiylik tamoyiliga amal qiladi. Bu bilan talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishda ularning qobiliyatları va iste'dodlarini namoyish qilish, faol hayotiy qarashlarini rivojlantirib borishlari uchun shart-sharoit yaratiladi. Shaxsga ta'sir etish nuqtai-nazaridan ommaviylik tamoyillining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, har bir talaba tadbirda faqat tomoshabin yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki faol qatnashchi sifatida ishtirot etishlariga e'tibor beriladi. Ommaviylik talabalarga ijtimoiy jihatdan o'zlarini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratadi. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarda ularning mazmuniga qiziqish asosida namoyon bo'lувчи ixtiyoriylik tamoyiliularning bo'sh vaqtining samarali tashkil etilishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiylik tamoyiligidig ega bo'lgan tadbirlarni tashkil etishda yetakchi tamoyillardan biri bo'lib, turli shakllar va usullarni qo'llay bilish, ko'pgina fanlarning ilmiy yutuqlaridan umumlashtirgan holda foydalanish, talabalarda ilmiy tafakkurni shakllantiradi. Ilmiylik tamoyilida ta'sir o'tkazilishi kerak bo'lgan ob'ektning haqiqiy holati va ta'sir ko'rsatishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda yondashish muhim ahamiyatga egadir. Tadbirlarni o'tkazishda quyidagi mezonzarga ham amal qilish talab qilinadi:

- ob'yektivlik - har bir tamoyil ob'yektiv mayjud bo'lgan pedagogik qonuniyatga asoslangan holda shakllantiriladi;
- shaxsga yo'naltirilganlik - muayyan ziddiyatlarni, tarbiyaviy muammoni hal qilishga yo'naltirilganligi bilan tashqari tadbirlarning umumiyligi strategiyasini shakllantiradi;
- samaradorlik - har bir tamoyilning joriy etilishi natijasi tadbir samaradorligini ma'lum darajada oshirishga xizmat qilishi kerak;
- nazariy va amaliy ahamiyati - tadbirlarni o'tkazish nazariyasini va tashkil etilishiga oid amaliyotning takomillashishi hamda boyib borishiga xizmat qilishi zarur.

Tadbirlar o'quv rejasiga muvofiq muayyan mavzu bo'yicha emas, balki barcha guruhlar, kurslar, uchun umumiyligini bo'lgan yo'nalishda o'tkaziladi. Bu tadbirlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni tashkil etish va amalga oshirish uslubi ham bir-biridan farq qiladi.

Fuqarolik huquqlarini shakllantirishning eng samarali va ta'sirchan shakllaridan biri mavzuli kechalardir. Mavzuli kechalar muhim mavzulardagi fuqarolik muammolarga bag'ishlab tashkil etiladi. Masalan, «Ichkililikbozlikdan jinoyatgacha - bir qadam», «Ichkililikbozlikka qarshi kurashishning huquqiy chora-tadbirlari», «Giyohvandlik va uning salbiy oqibatlari», «Chekish va uning zararli oqibatlari», «Tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun huquqiy bilimingiz yetarlikmi?» «Erta turmushga chiqish va uning ijtimoiy-huquqiy muammolari» singari mavzularda tashkil etilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida mavzuli kechalarini o'tkazishga tayyorlanish bosqichi muhim ahamiyatga ega bo'lib, kechani o'tkazish uchun belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ijrochilardan tashqari boshqa talabalar ham to'la jalb qilinganligi uchun ular ham faollashib, muayyan darajada tayyorgarlik ko'radilar. Bu esa mavzuli kecha ishtirokchilarining faol qatnashchilariga aylanishi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bahs-mulohazalar esa muayyan muammoning mohiyatiga chuqur va har tomonlama yondashish orqali mustaqil tafakkurga ega bo'lish, o'z nuqtai-nazarini ilmiy faktlar orqali asoslash va himoya qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari nutq madaniyati, muomala madaniyati, munozara olib borish madaniyatini tarbiyalaydi. O'z qarashlarining to'g'ri yoki noto'gri ekanligini tekshirib ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bahs-munozaralar quyidagi metodologik talablarga javob berishi zarur. Tadbirlar mazmunida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, muvaffaqiyatlar, muayyan kamchiliklar, ularni bartaraf qilish yo'llariga bag'ishlanganligi, ya'ni, bugungi kun muammolarini aks ettirish, munozarada ishtirok etuvchilarning muammolar bo'yicha aniq qiziqishlarga ega bo'lishi, qatnashchilarning munozarani o'tkazishning aniq qoidalari bilan oldindan tanishtirilishi va uning yakunida eng qiziqarli fikrlarni ta'kidlab o'tish, yangi muammoni qo'yish va navbatdagi munozarada qatnashishga qiziqish uyg'otish kabilarga to'la javob bergandagina uni tashkil etish maqsadiga erishiladi va samaradorligi oshib boradi. Ko'rik-tanlovlar ham umuman fuqaro, fuqarolik madaniyati, oila burchi mehnat huquqi, vijdon erkinligi, tadbirkorlik huquqi yo'nalişlarida tashkil etilishi mumkin. Ko'rik-tanlovlarda talabalarining bilim va qobiliyatları namoyon etiladi, yanada faolroq bo'lishga, maqsadga intilishga yo'naltiriladi, irodasining mustahkamlanishiga ko'maklashadi. Talabalarning fuqarolik madaniyatini shakllantirishda darsdan tashqari tadbirlarning maxsus shakllaridan yana biri turli uyushmalar va to'garaklardir. «Sog'lom turmush tarzi», «Yosh huquqshunoslar», «Kichik fanlar akademiyasi» singari uyushmalar va

to'garaklarning asosiy maqsadi - talabalarda eng avvalo fuqarolik madaniyatini shakllantirishni darsda olgan bilimlarini mustahkamlash, ilmiy- tadqiqot ishlari olib borish ko'nikmasini hosil kilish, kabilardan iborat. Mashg'ulotlar rejasи to'garak rahbari tomonidan talabalarning qiziqish va istaklarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. To'garakning tashkil etilishi fanlarga alohida qiziqishlarini namoyish qilgan talabalar tanlovidan boshlanadi va bosqichma-bosqich shakllantirilib boriladi. To'garak ishlari odatda hastasiga bir marta 2 soatdan o'tkaziladi. O'quv yili oxirida to'garak a'zolarining hisoboti uyuştiriladi. To'garak a'zolari barcha ommaviy tadbirdarning (fan olimpiadaları, ko'rik-tanlovlari va h.k...) faol ishtirokchilari, ularni tashkil etish va o'tkazishning tashkilotchilari bo'ladilar. O'tkaziladigan tadbirdarni amalga oshirish jarayonida turli shakllardan foydalansada. ularning hammasi yagona maqsadga, ya'ni talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish jamiyat qonunlariga hurmat va ongli itoatkorlikni, e'tiqodni, faollikni tarbiyalash, yetuk axlokiy sifatlarni tarkib toptirish orkali fuqarolik madaniyatni shakllantirishga qaratilishi zarur.

Oliy ta'lif muassasalari talabalarining fuqarolik madaniyatini shakllantirish bo'yicha tadbirdarni amalga oshirish natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'tkaziladigan tadbirdar oliy ta'limi muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlari mazmunidan kelib chiqqan holda tasdiqlangan maxsus reja asosida o'tkazilishi zarur.
2. Tadbirdarni amalga oshirishda mavzuning dolzarbligi, talabalarning qiziqishlarini va ehtiyojlari birinchi navbatda hisobga olinishi maqsadga muvofigdir.
3. O'tkazilgan har bir tadbirdan so'ng uning tahlil qilinishi, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, ularni bartaraf etish navbatdagi tadbirdarning samaradorligini oshirishning garovi hisoblanadi.

## XULOSA

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining taqdiri, ijtimoiy hayotning rivojlanishi bevosita insонning fuqarolik madaniyati bilan belgilanadi. Bu esa shaxsning ta'lim tiziimidan oлган bilimlari va tarbiyasiga bog'liqdir. Chunki, jamiyat taraqqiyoti bevosita mustaqil fikrlaydigan erkin shaxslarning shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Shunday ekan, bugungi kunda fuqarolik madaniyatini shakllantirish bevosita demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini tezlashtirish, mamlakatimizda tinchlik, barqarorlikni ta'minlash, global masalalarni hal qilish bilan bog'liqdir. Chunki, fuqarolik madaniyatini shakllantirish o'zining ko'lami jihatdan keng bo'llib islohotlarning barcha sohalarini o'z ichiga oladi.

Fuqarolik madaniyatini shakllantirish mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy hayotini, jamiyat qurilishi sohalarini barqaror bo'lishga xizmat qiladi. Fuqarolik madaniyati demokratiya, erkinlik, mustaqillik jarayonlarini mustahkamlaydi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada fuqarolik madaniyatini shakllantirish mohiyati, mazmuni metodlari va shakllari ishlab chiqilgan. Bunda Markaziy Osiyo tarixida siyosiy idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan, qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning fuqarolik jamiyatni haqidagi g'oyalari ifodalangan.

Shu munosabat bilan uslubiy qo'llanmada Burhoniddin Marg'inoniy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabilarning odillik va qonunchilik haqidagi g'oyalari o'z ifodasini topgan. Bunda tashqari uslubiy qo'llanmada talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda dars va darsdan tashqari jarayonlarida amalga oshiriladigan tadbirlar asosida ularni ma'lumotli qilish, mehnat, turmush va bo'sh vaqtlarini tashkil etish tizimi yaratilgan.

Uslubiy qo'llanmada suhbat usulini amalga oshirish jarayonida talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Bunda suhbat o'tkazish joyini to'g'ri tanlash jarayonlari murabbbiy mahoratig'a, pedagogik ta'sir etish usuliga bog'liqligi ko'rsatilgan.

Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda murabbiyning psixologik tayyorgarligi, muomila madaniyati, favqulotda vaziyatlarda o'zlarini qo'lga olish hislatlari ishlab chiqilgan. Bunda ularning bilimi, mahorati, fuqarolik ongi, mantiqiy fikrlashi, ishi bilan so'zining birligi kabi omillarning ahamiyati yoritilgan.

Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishga kompleks yondashishda ularni g bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, o'quv faoliyitini

aniq bir maqsadga qaratish kabi yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Talaba shaxsiga kompleks yondashish asosida ularning qiziqishlari, bilimlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari yaratilgan.

Uslugiy qo'llanmada mustaqillik g'oyalariga qattiq turib rioya qilish, fuqarolik madaniyatini shakllantirish, g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashining yuqori darajada bo'lishi, qonunga hurmat, qonun ustuvorligini ta'minlash, yuqori ijtimoiy faollikkga erishish masalalariniing mazmuni ishlab chiqilgan. Uning mazmunida vatanga bo'lgan e'tiqodini shakllantirish, bo'lajak mutaxassis hislatlarini kamol toptirish, fuqarolik madaniyatini shakllantirishda targ'ibot va tarbiya ishlarini amalga oshirish yo'nalishlari ifodalangandan.

Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish inson va jamiyatning rivoji uchun asosiy omil rolini o'taydi. Chunki, bugungi rivojlangan jamiyat ziyorilari inson va jamiyat muammolarini hal etishda faol ishtirok ettishlari ularning fuqarolik burchiga bog'liq. Shu jihatdan ham jamiyat taraqqiyotida fuqarolik madaniyatini shakllantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bunda:

1. Fuqarolik madaniyatini shakllantirish muammosini fundamental ravishda tadqiq etish, uning ilmiy-nazariy asoslарini ishlab chiqish.
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik madaniyatini muammosiga doir qarashlarini chuqur o'rGANISH va ularning yo'nalishlaridan foydalanish.
3. Jamiyat taraqqiyotida fuqarolik madaniyatini shakllantirish asoslari, tamoyillari va yo'nalishlarini tarkib toptirish.
4. Talaba yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarni yaratish.
5. Fuqarolik madaniyatini shakllantirish asosida odamlarning ongi va qalbini yot g'oyalardan mustahkam himoya qilishga erishish.
6. Davlat va jamiyat taraqqiyotida fuqarolik madaniyatini shakllantirish uzlusiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish jarayonlarida amalga oshirishini ta'minlovchi sharoitlarni yaratish va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish.
7. Talaba-yoshlarning fuqarolik madaniyatini shakllantirish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda «Fuqarolik madaniyati - demokratik jamiyat poydevori» mavzusida kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

8. Bugungi siyosiy - huquqiy voqelikni hisobga olgan holda mamlakatimizda ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilas'. maqsadida Adliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligi bilan hamkorlikda «Shaxs fuqarolik madaniyati», «Fuqarolik huquq va erkinliklari» mavzularida ilmiy anjumanlar o'tkazish.

9. Talablarda fuqarolik madaniyatini uzlucksiz ta'lim tizimi va turlarini shakllantirishda oila, ota-onalar, jamoa tashkilotlari, mahallalar rolini kuchaytirish.

10. Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiya sohasida zamонавиъ axborot va komp'yuter texnologiyalari, internet tizimidan keng foydalanish.

11. Oliy ta'lim muassasalari talabari uchun fuqarolik madaniyatni shakllantirish texnologiyasiga oid o'quv uslubiy qo'llanmalar yaratish.

12. «Fuqaro huquqi, burch va mas'uliyati» mavzusida ommabop risola tayyorlash kabilarni amalga oshirish O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi.

## **Adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2010. –Б.56.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.176.
3. Ўзбекистон Республикасининг фукаролик кодекси. –Т.: Адолат, 2007. –Б.519.
4. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док...дисс автореферати. –Т.: 2007. –Б.38.
5. Бобоев Х.Б., Сайдов А.Х., Шораҳметов Ш.ИШ. Инсон хуқуқлари: Олий ўкув юртлари учун ўкув кўлланма. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б.260.
6. Сайдов А., Таджиханов У., Одилкориев Х. Давлат ва хукук асослари. –Т.Шарқ, 2002. –Б.519.
7. Таджиханов У., Одилкориев Х., Сайдов У. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий хукуки. –Т.: Шарқ, 2001. –Б.750.
8. Турдибоева Р. Талаба ёшлар хуқуқий маданиятини шакллантиришнинг назарий ва амалий муаммолари. –Т.: Адолат, 2002. –Б.113.
9. Фалсафа қомусий лугат. –Т.: Шарқ, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. –Б.425.

# MUNDARIJA

KIRISH.....	3
<b>1-bob. TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI</b>	
1.1. Talabalarda fuqarolik huquqi asoslarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	7
1.2. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishning tarixiy ildizlari.....	17
1.3. Talabalarda fuqarolik huquqlarini rivojlantirish shakllari.....	25
<b>2-bob. TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI</b>	
2.1. Ta'lrim jarayonida talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish.....	29
2.2. Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish bosqichlari murabbiy mahorati.....	33
<b>3-bob. TALABALARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI</b>	
3.1. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirishga kompleks yondashish.....	42
3.2. Talabalarda fuqarolik huquqlarini shakllantirish tadbirleri Xulosa.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	54

**HUQUQSHUNOSLIK  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI  
FANINING MAVZULARI BO'YICHA**

**TALABALARDA FUQAROLIK HUQUQLARINI  
SHAKLLANTIRISH**

**USLUBIY QO'LLANMA**

Mahkamova N.

Muharrir Sidikova K.A.

Musahihh Kamolova N.

---

Bosishga ruhsat etildi 23.02.2017 y. Bichimi 60x84 1/16.  
Shartli bosma tabog'i 4. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 248.

---

IDLU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh., Talabalar ko'chasi 54.